

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

Z.M. BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX VA IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI

O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

Tarix ta'lim yo'nalishi IV kurs bitiruvchisi

OBIDJONOV NE'MATILLONING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: ANDIJONGA SURGUN QILINGANLARNING TAQDIRI (KNYAZ
TRUBETSKOY AVLODLARI MISOLIDA)**

ILMIY RAHBAR:

R.T.SHAMSUTDINOV

**O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi, tarix fanlari
doktori, professor**

ANDIJON – 2015

**MAVZU: ANDIJONGA SURGUN QILINGANLARNING TAQDIRI
(KNYAZ TRUBETSKOY AVLODLARI MISOLIDA)**

REJA:

KIRISH

**I BOB. SOVETLARNING QULOQQA TORTISH VA SURGUN
QILISH SIYOSATI**

**II BOB. ANDIJON RUS DVORYANLARI VA ZIYOLILARI
TALQINIDA**

**III BOB. ANDIJONING 30-YILLARDAGI XAYOTI
TRUBETSKOYLARNING MAKTUBLARIDA AKS
ETTIRILISHI**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ILOVALAR

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Buyuk istiqlolimiz jamiyatimiz hayotining barcha sohalari va butun jabhalarida mislsiz ijobiy o'zgarishlar yuz berishiga asos soldi. Ayniqsa ma'naviy hayotimizda asrlarga barobar ulkan ezgulik ishlari amalga oshirilmoqda.

“Biz o'z tariximizni yo'qqa chiqara olmaymiz. Bu tariximizda ham qahramonona, ham fojeali saxifalar ko'p bo'ldi. Axir, keksa avlodlarning, ota-bobolarimizning kurashi va mehnatini inkor etib bo'ladimi? Ular yarim feodal holidagi qoloq mamlakatni ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy jihatdan taraqqiy etgan zamonaviy darajaga ko'tardilar. Bu aniq-ravshan dalilni hech kim rad qila olmaydi.

Ayni vaqtda sotsialistik qurilishning ko'pgina bosqichlarida qo'pol hatolar va buzilishlarga yo'l qo'yilganini ham hech kim, hech narsa shubha ostiga qo'ya olmaydi.

Bu hato va jinoyatlarning ildizlar o'tmishga borib taqaladi.”¹

O'zbekistonning sovet rejimi davridagi tarixining mislsiz alamli va qayg'uli sahifalaridan biri 20-30 yillardagi qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish va shu asosda quloqlashtirish hamda u bilan birga quloqqa tortilgan dehqonlarni surgun qilish, deportatsiya, qatag'on qilish masalalaridir. Bu mudhish jarayonda xalqimiz o'z boshidan mislsiz azob-uqubatlarni kechirishga mahkum etilgandi. Ayniqsa, qishloq aholisining katta qismi uy-joyidan, hovlisidan, ot-ulovidan, milliy makonidan, yaqinlaridan, mahalla-kuyidan, qavmu-qarindoshidan, butun borlig'idan mahrum qilinib qamoqqa olindi, uzoq begona yurtlarga surgun etildi. Bu surgunlar SSSRning barcha xududlarini qamrab olib, hech bir xalqni, millatni chetlab o'tmadi.

Yurtboshimiz 2015 yil 9 may kuni Xotira maydonida quyidagilarga e'tiborni qaratdi: Vaqt o'tadi, zamonlar o'tadi, lekin Vatan ozodligi va erkinligi, el-yurtimizning tinch va osuda hayotini himoya qilishda kurashib jon bergan o'g'lonlarining nomlari va xotirasi ko'pni ko'rgan, hech qachon yovuz dushman oldida bosh egmagan xalqimizning yodida umrbod, abadiy saqlanadi. Bu fazilat el-yurtimizning ezgu odatiga, qadriyatiga aylanib ketgan. Shularni hisobga olgan holda, bundan 17-yil oldin 9-may – G'alaba kuniga yurtimizda Xotira va qadrlash

¹ Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. “Ўзбекистон” Тошкент, 2011. 165-бет.

kuni deb nom berib, naqadar to'g'ri ish qilganimizni vaqt o'tishi bilan bugun hayotning o'zi tobora tasdiqlab bermoqda.

Eng avvalo bizning e'tiborimiz markazida turgan eng sharaflı vazifamiz – urushda qatnashgan, bugun safimizda bo'lgan, har qadamda bizni qo'llab-quvvatlab kelayotgan faxriylarimiz haqida alohida gaplashib olishimiz zarur, deb bilaman, deb ta'kidladi.¹

Sovet rejimi davrida mazkur mavzuga ehtiyoj mutlaqo yo'q edi, aksincha bu masala o'rganish uchun yopiq hisoblangan. Chunki bu masalani o'rganish sovet rejimiga, komfirqa mafkurasiga mutlaqo to'g'ri kelmas edi.

Mustaqillik tufayli yurtidan surgun qilinganlarnig nomlari oqlandi. Bizning yurtimizga surgun qilingan va shu joyni o'zining Vatani deb bilgan insonlar o'z xotiralari xaqida yozar ekan Andijonning naqadar aziz va mo'tabar joy ekanligini alohida ta'kidlaganlar. Xuddi shunday surgun qilingan oilalardan Trubetskoylar oilasi esdaliklari Andijonning sovet davri tarixini o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Andijon ko'plab sinov va qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. Ammo hayotda yuz bergan har qanday mushkul ahvoldan chiqish uchun andijonliklar o'zlariga bo'lgan ishonchni yo'qotmagan, barcha qiyinchiliklarni matonat bilan bartaraf qilgan, o'z ajdodlari xotirasiga hamisha sodiq qolgan, hech qachon o'z g'ururi va vijdoniga qarshi bormagan, Vatanni ko'z qorachig'iday asrab-avaylab, ertangi yorug' kunlariga hamisha ishonadilar.²

Istiqlol tufayligina bu mavzuga ehtiyoj tug'ildi va endilikda u maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lib qoldi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston hududiga kollektivlashtirish natijasida quloqqa tortilib o'zga yurtlardan surgun qilingan dehqonlar va ularning bu mintaqadagi hayoti va taqdiri sovet tarixshunosligida umuman o'rganilmagan. Tarixiy adabiyotlarda bu masala tadqiqot ob'ekti qilib umuman qo'yilmagan, nari borsa quloq qilish va surgun etish masalasi, quloqlarni sinf

¹ www.press-service.uz/uz/news/archive/main/uz.uz

² Шамсутдинов Р., Мамажонов А., Бозоров Қ., Джумабоев И. Қўхна ва навқирон Андижон. Тошкент. “Шарқ” 2010. 17-бет.

sifatida tugatish komfirqa va sovetlar uchun sotsializm qurishdagi qo'lga kiritgan katta tarixiy voqea, ularning olib borgan siyosatining natijasi, g'alabasi sifatida talqin qilingan. Ana shu bois ushbu mavzu bitiruv malakaviy ish ob'ekti qilib olindi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi zo'rlik bilan o'tkazilgan kollektivlashtirish, quloqqa tortish va quloq qilinganlarni surgun qilish, ularning "quloqlar qishlog'i"dagi hayotini va bu jarayonning fojeali oqibatlarini kompleks tarzida o'rganishdan iboratdir. SHu maqsaddan kelib chiqqan holda tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- mavzuga doir adabiyotlarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish;
- mavzuni ochib berishga xizmat qiluvchi manbalarni tahlil etish;
- surgun qilish bosqichlarini va 1929-1932 hamda 1933-1938 yillardagi surgunlar jarayonini ko'rsatish;
- Andijonga surgun qilinganlarning taqdirini o'rganish;
- Knyazь Trubetskoy avlodlarining andijonga surgun qilinishi masalasini o'rganish;
- Andijon rus dvoryanlari va ziyolilari talqinini yoritib berish, keyingi taqdirini ochib berish.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari. Ishning nazariy va metodologik asosini ilmiy bilishning dialektik metodi, uzviylik, bir butunlik tamoyillari, xolislik, tarixiylik, tizimlilik, O'zbekiston Respublikasining milliy istiqlol mafkurasi, milliy g'oya, Prezident Islom Karimovning O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, o'zbek milliy davlatchiligi va uning tarixini bunyod etish to'g'risidagi metodologik, nazariy ko'rsatmalari tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishi O'zbekistonga 1929-1938 yillarda Komfirqa va sovetlarning zo'ravonlik bilan, majburan o'tkazilgan kollektivlashtirish, quloqlashtirish oqibatida badavlat, o'ziga to'q insonlarni surgun qilinishi va ularning bu mintaqadagi kechirgan ayanchli, fojeali hayoti, tumushi, mehnatini hozirgi zamon tarxshunosligi, xususan Rossiya Federatsiyasi, O'zbekiston va chet el tarixshunosligi nuqtai nazaridan birinchi marta tadqiq qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovlardan iborat. Umiy hajmi 58 betni tashkil qiladi.

I BOB. SOVETLARNING QULOQQA TORTISH VA SURGUN QILISH SIYOSATI

Surgun – sovet davlati jinoyat-huquq qonunchiligiga ko'ra jinoiy jazoning ko'rinishlaridan biri bo'lib, u javobgarning yashash joyidan mahrum qilinib, boshqa bir qat'iy belgilangan yerda joylashuvi bilan bog'liqdir. Sovet qonunchiligida surgun jazosi faqat sud hukmi bilangina tatbiq etilishi, uning muddati 3 yildan 10 yilgacha bo'lishi mumkinligi belgilangan. Surgun muddati asosiy jazo sifatida 3 yildan 10 yilgacha, qo'shimcha jazo sifatida esa 5 yilgacha belgilangan. Qonunga ko'ra, 16 yoshga to'lmaganlarga surgun jazosini qo'llash mumkin bo'lmagan. Surgun jazosida surgun joyi aniq belgilangan va surgun qilinganning bu yerdagi harakati belgilangan manzilgoh (posyolka, komendatura) doirasida chegaralangan. SHuningdek, jazoning surgun shaklida surgun qilinganlarga nisbatan surgun joyida muayyan qat'iy tartib, nazorat va majburiyatlar joriy qilingan.

Kollektivlashtirish, quloqlashtirish va surgun qilish tarixi yuzasidan arxiv hujjatlari to'plamlarining nashr etilishi Rossiya Federatsiyasida yaxshi yo'lga qo'yilgani va sobiq Ittifoq davrida mahfiy saqlanib, tadqiqotchilar uchun man qilingan hujjatlarni ilmiy iste'molga solishda qilingan ibratli ishlarni qayd etish lozim.

Bugungi kunda surgun jarayonini ochib beruvchi manbalar O'zbekistonlik taniqli olimlar, jumladan, R.T.SHamsutdinov, B.Rasulov, M.Akbarova, M.Abdullaev, S.Xoshimov, X.Qurbonov va boshqlar tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib, ushbu manbalar bir qancha yangi adabiyotlar yaratishda va ilmiy tadqiqotlar olib borishda asos bo'ldi.

O'rta Osiyodga, jumladan O'zbekistonga surgun qilingan "quloqlar" va ularning maxsus posyolkalardagi hayoti, turumushi, mehnat faoliyati na Qozog'iston, na O'rta Osiyoda tadqiqot ob'ekti bo'lmay keldi.

Mazkur mavzuning faqat ayrim qirralari professor R.T.SHamsutdinov bilan hammualliflikda yozilgan bizning 2006-2008 yillarda e'lon qilingan asar va

maqolalarimizda tadqiq qilindi¹. Bu ishlarda yangi topilgan arxiv hujjatlari orqali 1930 - yillarda O'rta Osiyoda o'tkazilgan kollektivlashtirish jarayonida Qozog'istonga surgun qilingan dehqonlar nomma-nom keltirilgan, surgun jarayoni, maxsus ko'chkindilarni tashkil qilingan "quloqlar posyolkalari"ga joylashtirilishi, 1933 yil iyulida SHimoliy Qozog'istonga surgun qilingan 500 oila (2000 kishi)ning bu begona yurtdagi og'ir mehnati, turmushi, ularning ko'pini o'lib ketgani, tirik qolganlarining O'zbekiston hukumatiga zorlanib yo'llagan xatlari, qanday qilib bo'lmasin vatanga olib ketishlari haqidagi iltimoslari, ammo bu yolvorishlar hech qanday natija bermaganligi ko'rsatib berilgan. Hatto 1931 yili Xersonga surgun qilingan erkaklardan bir guruhini urush boshlanishi bilan SHimoliy Qozog'istonga surgun qilib olib kelinganligi, 1937-1938 yillardagi Katta terrorda qatag'on qilingan Qozog'istondagi o'zbekistonlik quloqlar qismatlari ochib berilgan.

Xullas, bitiruv malakaviy ishida u yoki bu tarzda aloqasi bor bo'lgan tadqiqotlar talaygina ekanining shohidi bo'ldik. Biroq bu masalani butun bo'y-basti bilan, uning ko'p qirrali jihatlarini o'rganilishi lozim bo'lgan, maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qiladigan sohalar ham oz emasligi ma'lum bo'ldi. Ayni shu muammoning kemptik, o'rganilmagan sohalarini tadqiq etish ushbu tadqiqotning o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifasidir va bu ish O'rta Osiyo va Qozog'iston tarixshunosligiga qo'shilgan hissadir.

Quyida Rossiya tarixida 600 yil muhim rol o'ynagan Trubetskoylar sulolasi nomi bilan mashxur bo'lgan rus dvoryanlarining keyingi avlodlari nigohida qadimiy va hamisha navqiron Andijon qanday aks etgani to'g'risidagi noyob manbaalarni Siz aziz gazetxonlar e'tiboriga xavola etamiz. SHuni ta'kidlaymizki, bu tarixiy lavhalar Andijonning 30-yillardagi tarixini butun bir bo'y-basti bilan yoritishda yordamchi manbaa bo'lib xizmat qildi.

2808-sonli ish bo'iicha quyidagi 2 mahbus otuvga va 1 mahbus 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan, jazo muddati 1937 yil 28 avgustdan hisoblangan:

¹ Шамсутдинов Р., Сургунликда. Шимолий Қозоғистонга сургун қилинган ўзбеклар ҳусусида – Нuriyat, 2006, 30 август; ўша муаллифлар: Шимолий Қозоғистонга сургун қилинган ўзбеклар – Jamiyat va boshqaruv, -Тошкент, 2006, -Б. 276-279; Шимолий Қозоғистонга сургун қилинган юртдошлар. – Тарихнинг ҳасратли саҳифалари. -Т.: Шарқ, 2006. -Б.131-146; Ўша маллиф: Қозоғистон сургунидаги ўзбеклар тақдири. – Ижтимоий фикр-инсон ҳуқуқлари. -Т. 2007, №1, Б. 126-133;

Trubstskiy Vladimir Sergeevich — 1891 yili tugʻilgan, Moskva shahridan, sobiq knyaz, dvoryanin, sobiq gvardiya ofitse-ri, 1934 yili aksilinqilobiy faoliyati uchun OGPU kollegiyasi tomonidan 5 yil surgunga hukm qilingan. Qamalgan paytida sur- gunda boʻlgan, shahar oziq-ovqat savdo tashkilotining restoranida musiqachi. OGPU kollegiyasi tomonidan jazoga tortilganiga qara- may, “Rossiya milliy partiyasi” aksilinqilobiy tashkilotining faol aʼzosi boʻlganlikda, Andijon surgunidan qochganlikda, qamalgan kunidan boshlab Germaniya, Italiya, Frantsiya, Angliya, Avstriya, Ruminiya va boshqa kapitalistik mamlakatlardan qochgan aksilinqilobiy qochoqlar bilan muntazam aloqada boʻlganlikda, mamlakatlardan doimiy ravishda chet el valyutalarini olganlikda, kooperatsiya organlariga tuhmatlar uyushtirganlikda, partiya rahbarlari haqida haqorat soʻzlarni aytganlikda ayblangan.

Trubetskaya Varvara Vlalimirovna — 1917 yili tugʻilgan, Moskva shahridan, sobiq knyaz qizi, dvoryanin avlodidan, 1934 yili OGPU kollegiyasi aksilinqilobiy faoliyati uchun 2 yil surgunga hukm qilingan, hibsga olingunga qadar aniq mashgʻuloti boʻlmagan. SSSRdagi mavjud tuzumga dushmanlik kayfiyatida boʻlib Kirov oʻlimini amalga oshirish, xalq dushmanlari faoli- yatini oqlaganlikda, SSSR xalq dohiysi ustidan terroristik akti amalga oshirishni koʻzlaganlikda ayblangan.

Trubetskaya Aleksandra Vladimirovna — 1918 yili tugʻilgan, Bogoroditsk shahridan, knyaz qizi, dvoryan avlodidan, hibsga olingunga qadar aniq mashgʻuloti boʻlmagan. Opasining terrorchi- lik harakatlarini qatʼiy himoya qilganlikda, uning aksil- inqilobiy faoliyatiga sheriklikda, aksilinqilobiy unsurlar bilan aloqadorlikda, ularning yigʻinlarida qatnashganlikda ayblangan.¹

¹ Рустам Шамсутдинов. Қатағон қурбонлари. Иккинчи китоб. (1937 йил 10 август- 5 ноябрь). “Шарк”, Тошкент, 2007. 176-177 бетлар.

II BOB. ANDIJON RUS DVORYANLARI VA ZIYOLILARI TALQINIDA

Bol'sheviklar zo'ravonlik, terrorchilik usuli bilan Turkiston Muhtoriyatini qonga belab, o'lkada mustabid sovet tuzumini barpo etish borasida barcha kuch va vositalarni ishga soldi. Butun Turkiston kabi Andijon xalqi hayotida ham fojealarning yana bir sahifasi ochildi. Butun Andijon ocharchilik halokatga duch keldi.

1918 yil bahorida Turkistonda keng yoyilgan ocharchilik Andijonda ham hukm surardi. Andijon sovetining raisi D.S.Uryupinning 26 martda Toshkentga yo'llagan telegrammasida: **“Andijon shahrida ocharchilik, har kuni yuzlab kishi ochlikdan halok bo'lmoqda, ochlik oqibatida terlama va boshqa kasalliklar avj olmoqda. Ishsizlar oqimi katta, ish yo'k, grajdanlarni yuz bergan ahvol bilan kengrok tanishtirmoq kerak. Gazetalarda, majlislarda, soyuzlarda bu haqda xabar berishingizni iltimos qilamiz”**-deyilgan edi.

Andijonni oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun keskin choralar ko'rdi. Bu ishni amalga oshirish maqsadida mahsus komitet tuzildi, u g'alla tayyorlash uchun o'z vakillarini o'lka va uezd rayonlariga yubordi. Mulkdorlar mahsulotlarini boy va kapitalistlar mahsulotlarini tortib olib, ularga kontributsiya solindi, ochlar uchun bepul oshxonalar ochildi. Biroq, bu tadbirlarga ba'zi mulkdorlar qarshilik ko'rsatgan. Turkiston Muhtoriyatini qonga belagan qizil gvardiyachilar, arman dashnoqlari aksilinkilobchilarga qarshi kurash niqobi ostida mahalliy millat vakillariga qarshi qonli jang uyushtirib, yerli aholiga nisbatan qatag'on qo'lladilar. Ana shunday vaziyatda D.S.Uryupin keskin, radikal choralar ko'rishga majbur bo'lgan. Andijonga Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlar Sovetining raisi Fedor Kolesov keladi, uning topshirig'i bilan Mirkomilboy Mirmo'minboev uyida hibsga olinib, Andijon vokzaliga yaqin joyga olib chiqib, hech qanday tergovsiz, sudsiz kapitalist, boy sifatida otib yuboriladi, yana bir millioner boy, jadidchi Ahmadbek hoji Temirbekov butun boyligi, uy-hovlisini tashlab Qashg'arga muhojir bo'lib chiqib ketadi. Bu kabi ishlarda Andijon shahri va uezdining birinchi rahbari D.S.Uryupinning ham qo'li bor edi. Bu kabi

nojuya ishlar, qonunsizliklar tufayli D.S.Uryupinning obruyi tusha boshlaydi. 1918 yil aprelidayoq u shahar partiya komiteti va Soveti tarkibidan chiqariladi.¹

Sovetlarning o'lkada olib borgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy siyosati o'lkada chuqur siyosiy bo'xronni keltirib chiqardi. Bundan ayniqsa mahalliy aholi azob-uqubat tortdi.

Ayni mustamlakachilik siyosati oqibatida O'zbekitonga ham o'zga yurtlardan surgun qilindilar. Xuddi shunday oilalardan biri knyazъ Trubetskoy avlodlaridir.

Trubetskoylarining yozib qoldirga esdaliklari, maktublari Andijonning 1930 yillardagi tarixi ochib berishda alohida ahamiyatga ega.

Vladimir Sergeevich Trubetskoy leyb-gvardiya ofitseri, birinchi jahon urushi ishtirokchisi, 1920 yili qizil armiyaga chaqirilgan, shu vaqtdayoq qamoqqa olingan. 1934 yili Vena fanlar akademiyasi akademigi, tug'ishgan akasi Nikolay Trubetskoy haqidagi sohta to'qilgan slavyanshunoslarning "ishi" bo'yicha 7-marotaba qamoqqa olinib uzoq Andijon shahriga surgun etilgan, bu yerda Andijon shahar savdo va umumiy ovqatlanish tashkiloti qaramog'idagi mahalliy restoranda musiqachi bo'lib ishlagan. 1937 yili qizi Varvara Trubetskaya bilan birga sakkizinchi marotaba NKVDning Andijon sektori xodimi Makarevich tomonidan qamoqqa olingan va xar ikkisi xam otilgan. SHuningdek qizi Aleksandra Vladimirovna Trubetskaya va SHaxrixondagi kinoteatrda mexanik bo'lib ishlab turgan o'g'li Grigoriy Trubetskoylar 10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm etilib, Andijondan GULAG lageriga etap qilingan.

Trubetskoy Andrey Vladimirovich (1920-2002 yil) Tula gubernasi Bogoroditse shahrida ko'p bolali Vladimir Sergeevich va Yelizaveta Vladimirovna Trubetskoylarning oilasida to'rtinchi farzand bo'lib tug'ilgan. Oila Bogoroditsdan Zagorskga ko'chib kelgan, tez orada otasi va katta opasi Andijon shahriga surgun qilingan, ular ortidan butun oila Andijonga kelgan. 1937 yili otasi va katta opasi qamoqqa olingan va otib tashlangan, ikkinchi opasi Solikomsk yaqinidagi lagerda vafot etgan, onasi Butырка turmasida o'lgan.

¹ Шамсутдинов Р., Исоқов А. Андижон тарихидан лавҳалар. Т.: "Шарқ", 2013. -бет

Andrey Vladimirovich Samarqand universitetiga o'qishga kirgan, biroq o'qishni davom ettirish uchun Moskvaga ketgan. 1939-yili armiyaga va 1941-yili frontga olingan, urushda og'ir yaralanib asr tushgan. Mo'jiza yuz berib saqlanib partizanlarga qochib o'tgan, urushni Berlinni ozod qilish bilan yakunlagan. 1949-yili qamoqqa olinib Steplag (Jezqozg'on)ga mis koniga surgun qilingan. 1955 yili reabilitatsiya qilingan, Moskvaga qaytib kelib universitetning biologiya fakul'tetiga kirgan. U o'zining 1939-1956 yillardagi og'ir hayotini "Puti neispovedimyy" nomli kitobida (M. "Kontur", 1997) yozgan. Kardiologiya instituti fiziologiya laboratoriyasi mudiri bo'lib ishlab 1961 yili nomzodlik, 1971 yili doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan va umrining oxirigacha Meditsina Akademiyasi kardiologiya Markazida laboratoriya mudiri bo'lib ishlagan. 2002 yili 27 oktyabrda 83 yoshida onkologik kasallikdan vafot etgan. Dolgoprudniy qabristoniga dafn etilgan.

Trubetskoylarning xotiralarida Andijon quyidagi talqin qilingan: Nihoyat Andijonga yetib keldik. Akam Volodka bilan(oilamizda hammamiz bir-birimizning ismimizni aytib chaqiramiz - Volodka, Seryojka, Andreyka, Irinka) kim birinchi bo'lib otamiz bilan ko'rishishga baxs bog'lashdik. Men poezdning bir tomonidan, akam ikkinchi tomonidan qaraydigan bo'ldik. Otamni birinchi bo'lib Volodka ko'rdi, sababi vokzal u tomonda ekan. Xayajonli uchrashuv. Ana shu uchrashuvni xozir xuddi qalin tuman ortida turgandek elas-elas xotirlayman. Uning opasi, tog'amiz Polb Butenovning xotini Masha xolaning o'limi haqidagi xabar uning quvonchini darxol so'ndirdi.Ular Parij atrofida katta oila bo'lib yashashgan, bizdan o'z yordamlarini sira ayashmasdi. Bu noxush xabar yo'lga chiqishimizdan avval Zagorskda ekanligimizda bizga yetib kelgan edi.

Vokzaldan bizga ajratilgan uyga jazirama issiqda piyoda qanday yetib borganligimizni eslay olmayman. Otam va Varya kelmishimizdan oldin Eski shahardagi Qizil karvon ko'chasida istiqomat qiluvchi Mirzaev familiyali o'zbekdan uyining yarmini ijraga olishgan ekan. Otam maxalliy restorandagi kichik bir orkestrga joylashibdi, Varya ham o'ziga mos ish topgan ekan. O'rta Osiyoning barcha shaharlari Farg'onadan tashqari ikki qismga – Eski va Yangi shaharga

bo'lingan. Andijon ham xuddi shunday joylashgan ekan. Biz o'rta mintaqadan kelib, joylashib qolgan bu yangi dunyoni biroz ta'riflashga harakat qilaman.

Eski shahar boshdan-oyoq ikki cheti paxsa devorlar bilan qoplangan qing'ir-qiyyshiq ko'chalar, mahallalar, tor ko'chalardan iborat. Uylarning birontasiga ham deraza o'rnatilmagan. Bu yerda yashovchi maxalliy aholi derazani faqat ichkaridan ochishga odatlangan ekan. Xovlilar esa mevali daraxtlarga to'la. Ular paxsa devorlarni ham qoplab olgan. Katta ko'chalar yoqasiga ariqlar chiqarilgan bo'lib, ularda loyqa suv oqib turadi. Kichik ko'chalarda ariqlar yo'q. Ular xovli oralab oqib, ayrim joylardagina ko'chani kesib o'tadi.

Mana, otamning Zagorskka yuborgan yana ikkita xati: 23 apr.¹

Yangi shaharda yevropacha uylarni uchratasiz, ular ham bir qavatdan iborat. Ko'cha va yo'laklarga shag'al yotiqizilganligini, salqinligini hisobga olmaganda e'tiborni tortadigan boshqa jihatlari yo'q. Yangi shaharning asosiy ko'chasi hisoblangan Lenin ko'chasining bir tomoni vokzalga, ikkinchi tomoni cherkovga borib tutashadi. Unga radiouzel o'rnatishgan. SHaharda bundan tashqari yana bitta cherkov bor. Asosiy ko'chada magazinlar ko'p. Yuqorida aytganimdek Farg'onadan tashqari O'rta Osiyodagi barcha shaharlar mana shunday bo'lingan. CHunki Farg'ona XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo istilo qilinganidan keyin qurilgan yevropacha shahar hisoblanadi. Revolyutsiyaga qadar shahar istilochi Skobelev nomi bilan atalgan. Farg'ona – bog' va o'rmonlar shahri hisoblanadi. SHaharga kirib borar ekansan faqat dov-daraxtlarga ko'zing tushadi. Yo'llarning ikki chetiga bir necha qator qilib daraxtlar ekilgan. Har bir hovlida bog' mavjud. Aytmoqchi, O'rta Osiyoliklar yomon ko'radigan Skobelevning nomi Bolgariyada hurmat-ehtiromda. U bolgarlarni turklardan ozod qilgan. Sofiyada uning ot mingan xaykali turibdi. O'sha paytda Andijon 70 ming aholisi bo'lgan ancha katta shahar edi. Bu yerda bir nechta paxta zavodi, katta yog' zavodi(chigitdan yog' olinadi), grenzavod (ipak qurti ko'paytiriladi) faoliyat ko'rsatadi. Yana bu yerda pivo zavodi, mexanika ustaxonalari, sovungarlik zavodi mavjud. SHahar bog'larida besh-oltita yozgi kinoteatr, yana ikki yoki uchta yopiq kinoteatr bor. Eski shahardagi

¹ Шамсутдинов Р. Андижонинг 30-йиллардаги ҳаётидан чизгилар. Андижоннома. 2103 йил 24 июнь. 3-бет

xiyobonlarning birida o'zbek teatri, unga yaqin joyda zamonaviy madaniyat va istiroxat bog'i joylashgan. U haqda keyinroq so'z yuritamiz.

Eski shaharning eng ko'zga ko'ringan joyi – bu bozor. Butun bir kvartalni egallagan bunday bozorlarda tovarlar aralash xolda sotiladi. Rastalarga nafaqat sotuvchilar, balki hunarmandlar ham joylashgan. Ularning joylashuvi qat'iy tartibda, tayyorlanadigan maxsulot turiga qarab amalga oshirilgan. Temirchilar, misgarlar, kosiblar, do'ppido'zlar o'z buyumlarini shu yerning o'zida tayyorlashadi. Ro'mol va to'n sotuvchilarni ko'p uchratasiz. Pichoqchilik ham rivojlangan. Pichoq erkaklar kiyim-boshining ajralmas bir bo'lagi bo'lib, u to'g'ri va egik xolda tayyorlanadi. Uzunligi 15-30 santimetr bo'lib, teridan tayyorlangan qinga solib qo'yiladi. Bu yerda sotiladigan narsalarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Kulolchilarning ishi ekzotik manzara kasb etgan. Bu yerda oddiy ro'zg'or buyumlardan tashqari balandligi bir metrdan ziyod sopol ko'zalar tayyorlanadi. Bozorda choyxona va oshxonalar ham aralashib ketgan, ularda yengil tamaddi qilib olish mumkin. Boshqa yeguliklarga ham alohida joylar ajratilgan. Bularning barchasi shaharning kundalik qaynoq hayotini belgilab berardi. Juma kuni(musulmonlarda juma bizdagi yakshanba kabi muqaddas hisoblanadi)da esa bozor o'ziga xos bayramga aylanib ketadi. Ayniqsa yoz mavsumida bog'lar, tomorqalar, uzumzorlarda pishib yetilgan sarxush meva, poliz maxsulotlari bilan to'lib-toshadi. Ularning hammasi yerda, tog'oralarda, paqirlarda sotiladi. Tanlagan narsangizni donalab ham, to'p holda ham sotib olishingiz mumkin. Ba'zan tortib berishadi. Tarozilari esa juda oddiy: ipga bog'langan ikkita pallaning o'rtasiga yog'ochdan shayin o'rnatilgan. Qadoqtosh o'rniga oddiy toshlardan foydalanishadi. O'lchov birligi esa rubl(bir so'm): bir so'mga ikki kilo, bir so'mga besh kilo, bir so'mga o'n dona va hokazo. SHaftolilarning xilma-xilligini aytmay sizmi! Ular rangi, shakli, hajmiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Etik yog'ining idishidek keladigan sap-sariq rangdagi anjirdan bol tomib turadi. Bozorda bulardan tashqari olisha, jiyda, tut, o'rik, piyoz, sarimsoq piyoz, kartoshka ham sotiladi. Qovun va tarvuzga alohida joylar ajratilgan. Ular butun ko'cha bo'ylab cho'zilib ketgan. Men yanglishganim yo'q, chindan ham ular butun bir ko'chani egallab olgan. Sababi

ushbu mahsulotlar ikki g'ildirakli aravalarda olib kelinadi. G'ildiraklari ikki metrli aylanadan iborat, ularni tutashtirib turuvchi o'qning ustiga yog'och so'richa joylashtirilgan. Undan ikkita shoti chiqib turadi. Aravakash otga minib, oyoqlarini shotiga tirab o'tiradi. Yangi keltirilgan qovun yoki tarvuz tushirilishi bilan darrov savdo-sotiq avj olib ketadi. Bo'shagan aravani esa otdan ajratib, shotisini tepaga qilib qo'yishadi. Uning panasiga qovun-tarvuzlarni joylashadi. Xatto aravakash va sotuvchi ham aravaning tagida issiqdan jon saqlaydi. Bunday bo'shagan aravalar butun ko'cha bo'ylab saf tortib, ajib bir manzara kasb etadi. Kechasi ustiga yalpiz tashlab qo'yilgan qovun-tarvuzlar muzdek bo'lgani uchun ularni qanchalik ko'p bo'lmasin darrov talab ketishadi. Ular shu yerda so'yib yeyishga ham odatlanishgan. Buning uchun yosh bolalar va qizaloqlar aravalarning orqa tomonidagi quruq yerga gilamchalar to'shab, qovun yemoqchi bo'lganlarga pichoq taklif qilishadi. Ular faqat po'chog'i uchun shunday qilishadi. Chunki uy hayvonlari uchun u yaxshigina ozuqa hisoblanadi(aytmoqchi xayvon tezigidan yoqilg'i sifatida ham foydalanish mumkin). Eski shaharda qovunni tiliklab, odam ko'p yuradigan chang ko'chalarda ham sotishadi. Uylarning darvozasi oldiga taburetkalarni qo'yib, ustiga qovun so'yib qo'yishganini ko'p ko'rganman. Bizdagi qishloq ko'chalari bo'yida olma va kartoshka sotilgani singari, sotuvchi chaqirishingiz zaxoti darxol uyidan chiqib keladi.

Rastalarning yana bir qatorida saqich sotiladi. Ular ikki xil bo'lib, sariq rangdagilari qimmatroq. Qora rangdagisi esa birmuncha arzon. Uni og'ziga solib, mazza qilib chaynashadi. Agar chaynash joniga tekrsa, biron joyiga yopishtirib qo'yishadi, keyin yana foydalanish uchun. Eng xaridorgir bo'lgan qalampir sotuvchilar ham bir chekkadan joy egallashgan. To'q zangori rangdagi, nam va yumshoq, har biri gugurtning uchidek yumaloq shakldagi nos chekimligi ham o'ta xaridorgir. Ular peshtaxtalarga uyum qilib to'kiladi. Kashandar belbog'ining orasidan nosqovoq chiqarib, sotib olgan chekimlikni darrov unga joylab olishadi(o'zbeklar belbog'ni bitta yoki ikkita qilib bog'lashadi, ularning orasiga ko'p narsalarni joylash mumkin). Kishi xumor bo'lganda kaftini ochib, unga ushbu chekimlikning choy qoshig'i miqdoridagisini ajratadida, tilining ostiga tashlaydi.

Nos chekkan odam tili qisilganligi sababli sal qiynalib gapiradi. Chekib bo'lgach, nos qoldig'ini tupurib tashlaydi. Nosni o'zbek ayollari ham chekishadi. Odamlar gavjum joylarda boshqa yani bir chekimlik bilan savdo qilishadi. Bu - chilim. Uni bir marta ichiga tortishi 20 tiyin, shu sizga kifoya. Oshqovoqdan tayyorlangan bo'yi 40 santimetrli bo'sh idishning yarmini suv bilan to'ldirishadi. Tepadan solingan qamishning ichiga tamaki to'ldirilib, ikkinchi uchi suvning tagiga tushiriladi. Oshqovoqning yomboshidan yana bir naycha o'tkaziladi. Undan chiqayotgan tutunni chuqur nafas olgan xolda ichiga yutishadi.

Bu yerda sotilmaydigan narsaning o'zi yo'q: qoshni bo'yaydigan xina, ipga o'tkazilgan kumushrang novvot. Bozorda turli toifadagi odamlarni uchratish mumkin. Axyon-axyonda erkak kishining xuddi ayollarnikiga o'xshagan baland qichqirig'i eshitilib qoladi: "Yashang bodring!" Ruscha so'zlarni ham eshitib qolasiz: "A vot palovina saxar, palavina med!" Bularning barchasi odamlar shovqiniga, eshaklarning xangrashiga qo'shilib ketadi. Bozorda non, no'xat, achchiq-chuchuk sotayotganlar ham shuncha. Kimdir qozondagi xozirgina damlangan palovni maqtaydi. Katta xajmdagi samovarlar qo'yilgan choyxonalardan tashqari oshxonaga o'xshash joylar ham bor. Bu yerda qalampir o'ta ko'p qo'shilgan lag'mon sotishadi. Uning xamirini o'ziga xos tarzda cho'zib, shu yerning o'zida tayyorlashadi. Qalin xamirni tinmay urg'ilashadi. So'ng undan somsa va non tayyorlashadi. Tandirga asosan g'o'zapoya yoqishadi. U kam tutaydi. Bozorda fol ochuvchilarni ham uchratasiz. Salqin yerga sartarosh joylashib olgan. U kimningdir sochini qirar ekan xatto eng oddiy gigiena qoidalariga ham amal qilmaydi. Bayram kunlari bozorda dorboz va ko'zbo'yamachilar paydo bo'ldi. Dorbozlarning kichik orkestri bor ekan. Uning musiqiy asboblari nay, ikki metrli uzun karnay va barabandan iborat. Eski shahardagi katta bozordan tashqari Andijonning Yangi shaharida "Yangi bozor", Yangi va Eski shahar chegarasida "Piyon bozor" ham faoliyat ko'rsatadi. Ularning alohida bir xususiyati bo'lmasada, "Piyon bozor"ning nega bunday nomlanganligini sira tushunmadim.

O'sha paytda shahar transporti asosan usti ochilib yopiladigan aravalar(izvoshlar)dan iborat bo'lgan. Ularning "Piyon bozor"da pakkasi bo'lib,

uchala bozor o'rtasida harakatlanishardi. Izvosh to'lgunicha hamma yo'lovchilar kutib turardi. Bitta-yarimta odam yetmay qolsa, izvoshchi baqira ketadi: "Eski shaharga bir kishi!" yoki oddiy qilib: "Ey, bir kishi!" Ruslar negadir ushbu transport turidan kam foydalanishardi.

Bozorda esa odam va yuk tashishda asosan eshshaklardan foydalanishadi. Ushbu jonivorning chidamliligiga tan bermasdan iloj yo'q. Ularning biriga o'ta semiz erkak paranji o'ragan xotini bilan minib olibdi. Ustiga-ustak xurjunda anchagina yuk bor. Eshak bularga parvo ham qilmay, bir maromda yurib boryapti. O'sha kezlarda xotinlar paranji yopinishardi. U ayolning yuzi va butun gavdasini o'rab turishi kerak bo'lgan. Uning ichidagi ayol yoz kunida qanchalik kuyib-yonishini tasavvur etish qiyin emas. SHuning uchan pana joyga yetganda paranjining to'rini orqaga tashlab, yuzini ochishadi. Bironta erkak ko'rinishi zaxoti yuzini qayta yashirib olishadi.

SHunisi qiziqki, o'zbeklarning erkagi ham, ayoli ham cho'kka tushib o'tirishni yoqtirishadi. Biz ijrada turgan uyning egasi ham xovlini cho'kkalagan xolda supuradi. Bunga odatlanishgani tabiiy xol. CHunki o'choqda ovqatni cho'kkalab tayyorlashadi, xotinlar bilan ko'chada gaplashishganida ham cho'kkalab olishadi. Yo'lda ketayotib yer chang yoki loy bo'lgani sababli cho'kkalab nafas rostlashadi. Xozir ham metroda ayrim sharqona odamlarni uchratganimda, tirbandlikdan charchab cho'kkalagan xolda dam olayotganiga ko'zim tushib qoladi. Otam restoranda ichib olgan o'zbeklar o'zini nazorat qila olmay dastlab bir oyog'ini, so'ng ikkinchisini ham stulga chiqarib olishganini ko'p ko'rganman deydi.

Uy sharoitida ayollar yuzini yashirmaydi. Agar yo'lning narigi betidagi qo'shnisidikiga chiqishi kerak bo'lib qolsa darrov boshiga ro'mol yoki nimcha tashlab oladi, yuzini esa likop yoki patnis bilan to'sib oladi. Yon qo'shnilar o'rtasidagi devorga ko'cha orqali kirmaslik uchun dekcha ochib olishgan. Bundan tashqari xovlida yurgan ojizaga to'satdan begonaning ko'zi tushmasligi uchun kirish darvozasiga ko'ndalang ravishda paxsa devor urilgan. Yuqorida Eski shaharda ko'cha tomonga ochilgan bironta ham deraza yo'qligini aytib o'tgan edim. SHaharni kesib o'tgan temir yo'lining asosi baland ko'tarilgan. Unga yaqin bo'lgan

xovlilarning biridagi ko'cha devori ustiga qo'shimcha qilib qamish bo'ya o'rnatishibdi, vagonda borayotgan yo'lovchilarning ko'zi tushmasligi uchun. Biroq xolisona aytish kerakki, o'ttizinchi yillarda ayollar orasida, ayniqsa shaharliklar ichida paranji yopinganlar unchalik ko'p emasdi. Erkak va ayollar do'konlarda aloxida navbatda turishardi. Diniy nuqtai nazardan kelib chiqib emas, balki o'zining milliy an'analariga bo'lgan hurmat-e'tibori tufayli ham ular shunday qilishgan. Faqat temir yo'l kassalaridagina o'zbek ayollari navbatda turishmasdi. SHunda rus ayollari ularni xaqorat qila ketishardi. Ko'proq yoshi katta rus kishilari o'zbeklarga nafrat ko'zi bilan qarashgan. Maxalliy aholining ma'lum qismi ularga ana shunga yarasha javob qaytarishardi.

O'zbek ayollari sodda kiyinishgan. Ularning egnida gulli matodan tikilgan ko'ylak, lozim, boshida gul solingan yoki siydam do'ppilari bo'lgan. Sochlarini o'rib yurishgan. Quloqlariga sirg'a taqishardi. O'sma qo'yilgan qoshlar bir-biriga tutashib ketardi. Erkaklarning kiyinishi ham ajablanarli emasdi: oddiy ishton, yaktak, chopon va do'ppi. CHoponlari asosan yo'l-yo'l, turli xil ranglardan iborat. Bir xil tusdagisini kam uchratasan. Do'ppi esa asosan qo'lda tikiladi, to'rtta katta guli bor. Do'ppisidagi gullarning farqiga qarab, u kishining qaysi shahardan ekanligini bilib olish mumkin. Rangli, gilamli do'ppilar ham bor. Gilamli do'ppilarni asosan tojiklar kiyadi. CHoponni belidan bitta yoki ikkita belbog' bilan bog'lab olishadi(o'zbeklar boyligiga qarab ikkita chopon kiyishi ham mumkin), yonboshida esa charm g'ilofga solingan pichoq osilib turadi. Oyog'iga tag charmi dag'al bo'lgan etik yoki maxsi kiyib yurishadi. Ayrim xollarda faqat kalish sudrab yurishganini ham ko'rasiz. Tovuoniga naxal qoqtirilgan oddiy etiklar kam ko'rinadi. Erkaklar choponning ichidan yaktak kiyib olishadi. Ishtonlari esa kalta, to'pig'idan keladi. U ikki bo'lak matodan tikilgan bo'lib, "P" harfini eslatib turadi. Bunday ishtonlar dumbani yashirib turadi. O'zbeklarda orqasini chiqarib yurish ayb hisoblangan. Ular xatto xammomda ham avratini yopib yurishadi.

O'zbeklarning yana bir xarakterli jihatiga to'xtalmoqchiman. Ular gulni, ayniqsa atirgulni yaxshi ko'risharkan. Ko'cha va bozorlarda, qishloqlarda qulog'iga

yoki do'ppisining tagiga atirgul qistirib olgan chollarni ko'p uchratish mumkin. Bu juda ham ta'sirchan ko'rinish.

Andijon Farg'ona vodiysining sharqida joylashgan, uning atrofida Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Jalolobod, O'sh va boshqa bir qancha yirik posyolkalar bor. Qishloqlarni aytmay qo'ya qolay. Tuprog'i nihoyatda unumdor, suvi esa mo'l. Farg'ona vodiysi boshqa joylardan keskin ajralib turadi, uch tomoni tog'lar bilan o'ralgan. Janubda olis va hamisha oppoq qor bilan qoplangan Olay tog' tizmasi cho'zilib ketgan. Uning shakli katta tishlari bor arrani eslatadi, shahar chetidagi tepaliklar ortidan ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Tog' tizmasigacha kamida 150 kilometr yo'l bosish kerak. SHimol va shimoliy-sharqda biroz yaqin, yozda cho'qqisidagi qorning tez erishiga qaraganda uncha baland bo'lmagan Farg'ona tog' tizmalari mavjud. Unga o'rik oppoq bo'lib gullagan maxalda qarasang ko'm-ko'k osmon fonida ajib manzara kashf etadi. Bizning o'rta polosamizda bunday ko'm-ko'k osmon yo'q, unda yorqin tungi yulduzlarni ham uchratmaysiz.

Farg'ona vodiysidan Qoradaryo va Norin daryo oqib o'tadi. Ular vodiyydan chiqishda qo'shilib Sirdaryoga aylanadi, Andijon esa soy bo'yida joylashgan. Soy juda tez oqadi. Biroq, yo'l-yo'lakay, ariqlarni suv bilan ta'minlab, shahardan chiqishda ariqcha xoliga aylanadi va paxta dalalari ichida yo'q bo'lib ketadi. Andijonning yangi shahari chetidan boshlanadigan Bildin(hozirgi Navoiy prospekti) to'g'ri Eski shaharga olib boradi. U yoydek tekis, uzun, keng, ikki cheti qalin teraklar bilan qoplangan. Mazkur ko'cha yangi shahardan so'ng O'shga, undan so'ng Pomir va Xorogga olib boruvchi katta yo'lga qo'shilib ketadi. SHuning uchun bo'lsa kerak, ba'zi paytda Bildin ko'chasidan tuyalar karvoni o'tib qolardi. Ana shunday karvonlardan birida paxta yuklangan ellikta tuyani sanadim. Oldinda eshak mingan soqolli kishi borardi. Oxirgi tuyaning bo'yniga qo'ng'iroqcha ilingan bo'lib, uning ovozi karvonning bexatar kelayotganini anglatardi. Yoki Bildin ko'chasida yana boshqacha manzaraning guvohi bo'lish mumkin edi. Ikki uchta o'zbek rang-barang yoki bir xil tusdagi shoyi matoni keltirib, ularni daraxtlar orasiga ilib chiqardi. So'ng ularni xivich bilan savalab, orasidan ma'lum qismini ajratib olishardi.

Biz mana shunday biz uchun begona bo'lgan yangi bir dunyoga kirib qolgandik. Bularning barchasini batafsil ta'riflashimdan maqsad, mana shu dunyo biz uchun bir umrga ham shirin, ham achchiq xotira bo'lib qoldi. Andijonda 1969 yilda bo'lganimda, bu yerda ko'p narsa o'zgarganligini ko'rdim. Mamlakatning, xalqning, uning turmush-tarzining butun bir o'ziga xos xususiyatlari o'chib ketgandek tuyuldi. Bu yerliklarning hayot tarzi umumittifoq ahamiyatini kasb etgan edi. Ushbu jarayonning amalga oshishi tabiiy xol edi. Urush yillari Markaziy Osiyoga ko'plab odamlar va zavodlar ko'chirildi. Bu yerda avj olgan paxta yakka xokimligi bog' va polizzorlarni, sholipoyalarni qisib chiqardi. Paxta bu yerlik axoli uchun chinakam ofatga aylandi. Paxta asosan mashinada yig'ishtirib olinadi. Buning uchun dastlab g'o'za barglarini to'kish kerak bo'ladi. SHu sababli paxta dalasiga zaharli dorilar sepilgan. Bugungi kunda bu paxta yetishtiruvchi respublikalarning eng og'ir nuqtasiga aylangan. Angliyada sanoat inqilobi davrida "qo'ylar odamlarni yedi", degan ibora paydo bo'lgandi. Bu yerda esa odamlarni paxta nobud qilmoqda. Ayni paytda qurib borayotgan Orol dengizi muammosi ham bor. Aytishlaricha, yoz mavsumida Sirdaryoning suvi unga yetib bormaydi. CHunki uning suvi paxta dalalariga taqsimlanib ketadi. Amudaryoning taqdiri ham bundan mustasno emas. SHunga qaramay, Amudaryoning irmog'i xisoblangan Vaxsh daryosiga ulkan Nurek GESini qurishdi. U Butunittifoq qurilishiga aylangan edi. Suvni baland damba bilan to'sib qo'yishdi, natijada uzunligi o'nlab kilometrni tashkil etgan ulkan ko'l paydo bo'ldi. 1984 yili men u yerda bo'ldim (o'sha yili Dushanbada navbatdagi fiziologlar anjumani o'tkazildi. Men unda qatnashdim va bizni Nurekka olib borishdi). Bizni kichkina paroxodda suv ombori bo'ylab sayr qildirishdi. Bir necha kub kilometrdan iborat suv Orol dengiziga yetib bormay tog'da qolib ketarkan. Vaxolanki Vaxsh tog'lariga qurilgan kichik gidrostantsiyalar kaskadi ham ana shuncha miqdordagi elektr energiyasini berishi mumkin edi. Yo'q, bizga Butunittifoq qurilishi kerak deb aytishadi.

1969 yili men ilgarigi bozorlarni ko'rmadim. Mahalliy aholi endi Yevropa usulida kiyina boshlagan edi. Milliy kiyimlar esa ancha soddalashibdi. Yangi choponlar faqat bir xil rangdagi matodan tikilgan. Do'ppilar esa jonsiz mashinalar

chokidan chiqayotgan edi. Ijobiy o'zgarishlarni ham ko'rdim: shaharga vodoprovod olib kelishibdi. Paxsadan qurilgan eski mahallalarni buzib o'rniga zamonaviy uylar qurishyapti, yo'llarga asfal't yotqizishyapti. Andijonda endi tibbiyot instituti va boshqa bir qator oliygohlar bor. Bu yerda yashagan ruslar ancha kamaygan. Andijon boshqa O'rta Osiyo shaharlari singari ko'p millatli. Uning tub aholisi o'zbeklar va kam miqdordagi Buxoro jo'hidlaridan tarkib topgan. Qolganlari, ya'ni ruslar, ukrainlar, tatarlar, armanlar kelgindilar hisoblanishadi. 1935 yoki 1936 yilda bu yerda koreyslar paydo bo'lishdi. Ularni Uzoq SHarqdan majburan ko'chirib keltirishgan. Bu Stalin davri uchun oddiy xol edi. Koreyslarni butun O'rta Osiyoga, asosan qishloq joylariga joylashtirishdi. SHu bo'yi kolxozlarda yashab kelishyapti. Mahalliy sharoitga ko'nikishdi, lekin boshqa millatlar bilan qo'shilib ketishmadi. 1983 yili xotanim bilan Toshkentda bo'lganimda uning bozorlarida ko'plab koreyslarga ko'zim tushdi. Ular jon saqlab qolishgan edi.¹

¹ Шамсутдинов Р. Андижонинг 30-йиллардаги ҳаётидан чизгилар. Андижоннома. 2103 йил 24 июнь. 3-бет

III BOB. ANDIJONING 30-YILLARDAGI XAYOTI

TRUBETSKOYLARNING MAKTUBLARIDA AKS ETTIRILISHI

Andijonning 1934-1939 yillar davri tarixini knyaz Trubetskoy oila azolarining yozgan maktublari orqali qisman bilish mumkin. Ularning maktublari professor R.T.Shamsutdinovning “Andijonnoma”dagi “Andijonning 30-yillardagi hayotidan chizgilar” nomli maqolasidan¹ foydalangan holda bayon etamiz. 1934 yilning bahorida hukm chiqarilib otam 5 yil, katta opam Varya esa 3 yil muddatga O’rta Osiyoga, Andijon shahriga surgun qilindi. O’shanda shunday alg’ov-dalg’ovli zamonlar ediki, otamni tez-tez qamoqqa olishardi-da, ko’p o’tmay yana qo’yib yuborishardi. Bu galgi qamalishi esa surgun bilan yakunlandi. Otamni nega qamoqqa olishganini so’rashning o’zi mantiqsizlik edi. Varyani esa Moskvaning Trubnikovskiy tor ko’chasida yashovchi qaylig’ining uyida “qo’lga olishdi”. Aslida bu yerga ular o’sha yigitni qo’lga olish uchun kelishgan. Otamning qamoqda o’tirganini bilishib, opamni qo’yib yuborishadi. Balki yanglishayotgandirman. Otamning Andijonda turib Vladimir Golitsinga yozgan xatini o’qigach, menda shubha paydo bo’ldi. Chunki otam Varyaning qaylig’i anoyilardan emasligiga ishora qilgandi. Bu so’zlarning ortida nima yashiringanini anglay olmadim.

Keyinroq kuchda bo’lgan tartib-qoidalaridan farqli o’laroq otam va opamni surgunga oddiy yo’lovchi poezdining umumiy vagonida olib ketishgan. Ikki nafar nazoratchi esa ularga yaxshi munosabatda bo’lgan. Zagorskda uyimizga ulardan quvonchli, yangi taassurotlarga limmo-lim to’lgan qisqa otkritkalar kela boshladi. Mana ular:

“Mehribon onajonim!

Ushbu xatni senga poezdda ketayotib yozyapman. Biz Sizranga yaqin joyga yetib keldik. Bizni dastlab Toshkentga olib kelishdi, endi Andijonga ketyapmiz. 21-kuni yetib boramiz ekan. Soppa-sog’man, qornimiz ham to’q. Stantsiyalarda chiroyli milliy kiyimlardagi mordavanlarni uchratib qolyapmiz. Juda ajoyib! Cho’l

¹ Шамсутдинов Р. Андижонинг 30-йиллардаги ҳаётидан чизгилар. Андижоннома. 2103 йил 24 июнь. 3-бет

oralab ketyapmiz, Oka daryosidan ham o'tdik. CHemodanimga kofta-yubkamni joylab qo'ymaganingga attang qilyapman. Ularga qo'shib otamning surnayi, sovun va xalatimni ham tezroq jo'nat. Sizlarni qayta-qayta o'pib qolaman. Biz o'zimizni yaxshi xis qilyapmiz, biroq sizlardan, ayniqsa sendan xavotirdamiz. Sizlarni qayta-qayta o'pib qolamiz!

Varya. 17/IV.34

Mana bunisi esa otamdan kelgan. U Vladimir Golitsinga yuborgan birinchi xatida shunday yozadi: "...Mening Varyam qaylig'idan voz kechishni o'ylab qoldi, aytishicha u oxirgi oylarda sevishda ham, hurmat qilishda ham o'zini yaxshi tutolmayotgan ekan".

Kech oqshom, 18 apr.

"Qadrdonim Yelena!

Poezdga Osiyoni kezib yuribmiz. Bu yerda borliq qum barxanlari, ko'chmanchilar istiqomat qiladigan kulbalar, o'tovlar, tuyalar karvonidan iborat. Andijonga ketayotganimiz aniq bo'ldi, u Toshkentdan 400 km uzoqlikda ekan. Aytishlaricha Andijonda Toshkentga nisbatan narh-navo arzon (1 kilo guruch 2-2,5 rubl), ijaraga uy topish bahorda oson bo'larkan. SHaharda dov-daraxtlar ko'p, sholipoyalar, ariqlar bor, 3 chaqirim naridan baliq ushlaydigan yaxshigina daryo(bu Andreyga tegishli) oqib o'tadi deyishyapti. Seni o'pib qoluvchi Vladimir".

Varyaning yozishmasidan: "Osiyo juda qiziqarli ekan. Seni o'pib qolaman. Varya".

O'sha paytdagi otkritkalar ham ajoyib edi.Odatda uning oldi tomoniga biror-bir diqqatga sazor joy yoki manzara aks ettirilsa, bularda "Sotsialistik davlatga tovar yetkazib beramiz!" degan yozuv bor edi. Otkritkalarga siyohli qalamda yozilardi. Varyaning otkritkasiga Zagorsk pochtasining 20,4,34 , otamnikiga esa 24,4,34 shtamp raqami bosilgan ekan.

Butun oilamiz bilan ularning oldiga borishimiz aniq bo'lib qoldi. Onam sakkizinchi farzandga homiladorlikning oxirgi oylarini boshidan o'tkazayotgan edi. Qarindoshlarimiz bilan Osiyoga bolani qo'lida olib borishi kerakmi yoki qornida degan masala muhokama qilindi. Oxirgisiga to'xtalishdi. Biz zudlik bilan shahar

tashqarisidagi xo'jaligimizni yig'ishtirishni va uzoq yo'lga tayyorgarlik ko'rishni boshladik. SHu yerlik bir ziyoli bronzadan yasalgan eski taburetkamizni sotib oldi. Uning oyoqlari yo'lbars tasviri tushirilgan grif va suyanchiqni ushlab turadigan qanotchalar ko'rinishida edi. "Qanday, ajabo!" deya xursand bo'ldi uning yangi egasi. Yana bir qancha mayda-chuydalarning bahridan o'tishga to'g'ri keldi. Faqat eng keraklilari safarga olib ketish uchun joylandi. Otamning yog'och g'ilofdagi violonchelisi pochta orqali Andijonga yuborildi. Moskvadagi qarindoshlarimiz yo'l kiraga pul topib berishdi. Birinchi otkritkani olganimizga xali bir oy bo'lmay turib, aniqroq aytganda 1934 yilning may oyi o'rtalarida bizni Qozon vokzalidan olis Osiyoga kuzatib qo'yishdi.

Andijon degan shahar borligini men birinchi marta otam va Varyaning xatlaridan bilib olgach, shu zahotiyoq maktab darsligidagi xaritadan O'rta Osiyoni, O'zbekistonni qidirib topganman. Aytish qiyin bo'lgan geografik nomlar endi o'zining mo'jizalari bilan uyg'unlashgan holda bor haqiqatga aylanayotgan edi.

SHu yili men maktabning 6-sinfini muvaffaqiyatli tamomladim. Iyunda birinchi marta joriy etilayotgan sinfdan-sinfga ko'chirish imtihonlari o'tkazilishi kerak edi. Imtihonlar boshlanmay ketayotganligim sababli endi uni kuzda, yangi joyda topshirishimga to'g'ri keladi. Perronga bizni kuzatish uchun chiqqanlar orasida ikki kishini, onamning akalari Vovik va Niks tog'alarni yaxshi eslayman. Boshqa kuzatuvchilar ham bo'lgan, lekin ular yodimda saqlanib qolmabdi. 8 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan bolalar qurshovidagi oriqqina ayol, uning qappaygan qorni, bir olam tugunchalar, ezilib ketgan chemodanlar: bularning barchasi tashqaridan qaragan odamning darrov e'tiborini tortardi.

SHu vaqtgacha men poezdda "quyon" bo'lib faqat Moskvaga borganman. Zagorsklik bolalarni qahramonlik darajasiga olib chiqqan ushbu sayohatlarimizda ham yo'l qisqa emasdi. SHuning uchun uzoq yo'l men uchun g'oyatda qiziqarli bo'ldi. Bir tomonlama cho'zilgan poezd yo'li, kichik raz'ezdlarda qarshi tomondan kelayotgan poezdni o'tkazib yuborish uchun kutib turishlar, Sasova stantsiyasidagi sochiga tanga taqib olgan xotinlar, yastanib yotgan Volga kengliklari, bularning barcha-barchasi men uchun qiziqarli edi. Samarada noxush voqea ro'y berdi: 12

yoshli singlim Irina poezdan qolib ketdi. Ertalab edi, onam uni nonushtaga qaynoq suv olib kelishga jo'natadi. Irina liq to'la temir choynakni keltirganida onam uning qopqog'i yo'qligini ko'radi. Odatda bunday arzimagan narsalarga unchalik e'tibor beravermasdi. Bu safar negadir uni topib kelishni buyuribdi. U pastga tushishi bilan poezd siljiy boshlaydi. Onamning ko'zi pastda chopib kelayotgan Irinaga tushadi. Lekin poezdni to'xtatib bo'lmasdi. Men uxlab qolgan ekanman, g'alla-g'ovurdan uyg'onib ketdim. To'ng'ichimiz Grisha Samaraga qaytib, bizning ortimizdan singimizni olib boradigan bo'ldi. Samaradan ancha uzoqda bo'lgan kelgusi bekatda u qarshi yo'nalishdan kelayotgan poezdga o'tirdi. Voqeyliklardan oldinga o'tib shuni aytmqochimanki, ular biz o'ylagandek ertasiga emas, balki bir necha kun o'tgandan keyingina bizga yetib olishdi. Otam har kuni Moskva poezdini kutib olishga chiqardi. Ulardan esa darak yo'q. Kutilmaganda o'zlari xovlimizga kirib kelishdi. Irina qo'liga o'sha qopqoqni mahkam ushlab olgan edi. Grisha uni stantsiyaning militsiya bo'limi oldidagi skameykada yig'lab o'tirgan holatda uchratganini gapirib berdi. Militsioner uni yupatayotgan ekan. Asosiy yo'nalishdagi poezdlarda joy yo'qligi sababli ular aylanma yo'llar orqali kelishibdi. Puli tugab, sahiy yo'lovchilarning muruvvatidan bahramand bo'lishibdi.

Samaradan keyin vagon oynasidan cheksiz sahrolar, tepaliklar ko'zga tashlana boshlandi. Bahor bo'lib, chor-atrof lolaqizg'aldoqlarga burkangan edi. Yerga xuddi qirmizi mato to'shalgandek edi. Bir yoqlama yo'l huddi ilon izidek cho'zilgandan-cho'zilib ketgandi. Raz'ezlarda esa qarshi yo'nalishdagi poezdni kutib uzoq turib qolardik. Zahira yo'lda "Ichimlik suvi" degan yozuvi bor tsisternalar tizilib turardi. Tuyalar ko'zga tashlana boshladi, ularning ayrimlari xatto poezdning ostida qolib ketishdi. Qozoqlar vagonlarga sotish uchun qovurilgan go'sht olib chiqishardi. Mana bu joyda esa Orol dengizi mavjlanib turibdi(aytishlaricha xozir dengiz qurib, poezd yo'ldan 50 kilometrcha uzoqlashib ketgan, o'shanda biz uni aniq ko'rgan edik). Qizil O'rdada bizni qovurilgan baliq bilan siylashdi. Deyarli shaharning yonidan Sirdaryo oqib o'tadi.

Bir kuni ertalab turib, ufqning ortida huddi sarobdek tovlanayotgan qorli tog'larga ko'zim tushib, xang-mang bo'lib qoldim. Toshkentga yaqinlashganimiz

sari sahro o'z o'rnini yam-yashil dala va bog'larga bo'shatib berardi. Toshkent vokzalida eshitilgan begona so'zlar xayratimni oshirdi. Vagonda birinchi marta o'zbek yo'lovchilar paydo bo'lishdi. Ularning ichida yoshi ancha ulug' ko'ringan kishi o'z onasidan katta qalin evaziga kimningdir singlisini olib berishini iltimos qilardi.

Oyna ortida tomi tep-tekkiz bo'lgan loyli uylar, paxsa devorlar, ko'rinishi shamga o'xshab ketadigan uzun teraklar, qalin dov-daraxtlar, kartoshka ekilgan maydonlar singari tizilib turgan paxtazorlar qalqib turardi.

Suyukli onajonim! Kecha belgilangan joyga yetib kelib, ozod bo'ldik. Moskvadan borishda unchalik qiynalmadik. Nazoratchilarimiz yaxshi odamlar ekan. Dastlab Toshkentga olib kelib, markazdagi rahbarlarga tanishtirishdi. U yerda bir sutkani izolyatorda o'tkazdik. SHundan so'ng yangi nazoratchilar(ular ham yaxshi odamlar) hamroxligida kechasi Andijonga kirib keldik. Kecha ertalab bizni tilxat yozdirib ozod qilishdi. Umuman olganda eng qulay sharoitda qiziqarli ekskursiyani amalga oshirdik, desam ham bo'ladi. Maxalliy rahbarlar bizga yaxshi munosabatda bo'lishdi. SHahar turar-joy mahkamasida kvartira olish uchun bizga qog'oz berishdi. SHahar ta'minotida esa 400 gramdan non olish uchun kartochka ajratib, oshxonaga biriktirib qo'yishdi. Bu yerda 2 rublga yaxshigina tushlik qilish mumkin. Xizmatga joylashishim uchun yordam berishyapti. Bir haftadan keyin kvartira berishadigan bo'ldi. SHuning uchun kecha kun bo'yi ijaraga uy qidirdik. Faqat kechga boribgina Eski shahardagi o'zbeklardan ikki xonali, usti tekis yopilgan, paxsadan qurilgan, tagiga tuproq to'ldirilgan uyni oyiga 20 rubldan ijraga oldik. Ozoda, lekin butun O'rta Osiyoda bo'lganidek mebellari yo'q. Bugun esa bozordan makapoyadan to'qilgan kattakon bo'yra sotib oldik. Uni yerga to'shab sharqona o'tiribmiz. Uyning egasi yoqimtoy odam, shoir. Lekin unda yevropacha madaniyat yetishmaydi. Bugun yana 15 rublga eski primus, 4 rublga kerosin chiroq sotib oldim. Ishni teatr orkestrida 20 maygacha boshlay olmas ekanman. CHunki ijodiy jamoa Qo'qonda safarda, faqat bir oydan keyin qaytadi. Restoranda ham darrov ish boshlay olmayman. SHofyorlik qilish mumkin. Bu yerda avtomobillar ko'p, oyligi esa oz – 155 rubl. Buning uchun avval...(davomi yo'qolgan).

“Aziz rafiqam.

Violonchelъ yetib kelishi bilan bog’dagi restoranda ish boshlayman. SHu yerlik skripkachi va pianinachining aytishicha restoranda 600 rublъ pul ishlash mumkin ekan. Oylik maosh esa 300 r + tushlik va kechki taom. Ikkala hamkasbim ham ichmas ekan, agar shu rost bo’lsa juda yaxshi. Yaqin orada senga pul jo’nataman, degan umiddaman. Kecha Varya bilan shahardan 3 km naridagi daryoga bordik. Juda tez oqarkan. Andijonni uch tomondan o’rab turgan oq cho’qqili tog’larni, ajoyib bog’larni ko’rib, kayfiyatim yaxshilandi. CHo’lda gullar ochilib yotibdi. Lolaqizg’aldoq, nilufardek oppoq bo’lib ochiladigan yana qandaydir gullardan gulchambar yasadik. Bugun qarmoq sotib oldim, yana o’sha joyga borib baliq ovlayman. Kecha ko’z o’ngimizda bitta odam kichikroq ikkita laqqa baliq ushlab oldi. Xozircha shu, seni o’pib qolaman. Negadir sizlardan xali bironta xat olmadim.

Vladimir”.

Ushbu xat 1932 yili chiqarilgan otkritkaga yozilgan edi. Oldi tomoniga “Omonat kassaga topshirilgan har bir rublъ bizni sotsializmga yaqinlashtiradi” deb yozib qo’yilgan. “Pochta kartochkasi”, “Qaerga?”, “Kimga?” degan odatiy yozuvlar esa sakkizta tilda, jumladan arab imlosida yozilgan.

Odamlar ko’p o’tadigan katta ariq bo’yidagi qayrag’och tagida albatta choyxona bo’ladi. Yog’och so’rilarni esa suvning ustiga qurishadi. O’zbeklar eski gilam to’shalgan ana shu so’rilarda o’tirib olib ko’k choy ichishadi.

Eski shahar bir qavatli uylardan iborat katta maydonni egallagan. SHahar asta-sekin paxta dalalari, bog’ va uzumzorlarga ulanib ketadi. Bu yerda masjidlar ko’p, ularning ayrimlarida minoralar bo’lib, kechki payt mulla ping’illagan ovozda hammani nomozga chaqiradi. Minorasi yo’q masjidlar o’rta miyona ko’rinadi. Ular oddiy o’zbek uyiga o’xshatib qurilgan bo’lib, bitta baland va keng xonadan iborat. Oldida esa yopiq ayvoni bor. Eski shaharning markazida eng katta masjid joylashagan, lekin u yopiq edi. Ilgari bu yerda diniy ilmlar o’rgatiladigan bilim yurti bo’lgan. Ikki qavvatli ushbu masjid ko’plab imoratlardan tarkib topgan(xujra yoki

sinflar bo'lishi mumkin) bo'lib, to'rt burchak shaklga ega. Xovlining o'rtasida baland minora turibdi.

O'zbekistonda bo'lgan paytimizda, u yerda yozuv islohoti amalga oshayotgan edi. Mamlakatda arab imlosidan lotin imlosiga o'tildi. Eski shahardagi uylarning raqamlari arabcha bitilganligini, mahkama qog'ozlari arabcha yozilib, rus tiliga tarjima qilinganligini ko'rdik. Rus maktablarida esa o'zbek tilini yangi imloda o'rgatishar edi. Bu boradagi isloxotlar shu bilan yakunlanib qolmadi. Endi bizning SHarq respublikalarimiz kirill alfavitida yozishga o'tdi. Bularning barchasi Sovet musulmon respublikalarini xorijiy musulmon davlatlaridan ajratib qo'yishga qaratilgan siyosat edi. Kavkazortining xristian xalqlari – gruzin va armanlar, Boltiq bo'yi aholisi o'z yozuvida qoldi. Biroq madaniyat, xalqning butun bir tarixi, uning an'analari saqlanib qolaveradi. 70-yillari Moskvada traleybusda ketayotib oldimda o'tirgan tatar yoshlarining xat o'qiyotganiga ko'zim tushdi. Ushbu xat arab imlosida yozilgan edi. 1979 yili Frunzeda menga Toshkentda nashr qilingan Qur'onni ko'rsatishdi. U ham arab imlosida bitilgan edi. O'zbekistonda hozir ham bolalar sunnat qilinadi. Mosvadagi masjidga esa musulmon bayrami kunlari odam sig'may ketadi.

Endi o'zimizning hayotimiz, yashagan uyimiz, uning egalari va qo'shnilar haqida hikoya qilaman. Yuqorida eslatib o'tganimdek, biz dastlab familiyasi Mirzaev bo'lgan bir o'zbekning xonadoniga joylashdik. Birinchi kuni u bizga katta idishda gilos va oq o'rik olib kirdi. Oq o'rik eng erta pishadigani, yerga to'kilganida uning quyuq sharbati danagiga yopishib qoladi. Uyning sariq sochli xo'jayini boshqa o'zbeklardan farqli o'laroq rus tilida yaxshi gapirardi. Uning xotini Karomatxon esa ancha yosh, u faqat so'kinishdangina iborat bo'lgan ruscha so'zlarni biladi. Aftidan bu so'zlarni shaharda izvosh bo'lib ishlaydigan eridan o'rganib olgan bo'lsa kerak. U ushbu so'zlarning ma'nosiga tushunib-tushunmay to'g'ri kelgan joyda aytaverardi.

Biz turgan uy paxsadan qurilgan bo'lib, tomi tep-tekkiz, poli esa loyshuvoq qilingan. SHiftga to'rsin yotqizilib, ustidan qamish bosilgandi. Uning ustidan esa somon suvoq qilingan. Uyning devorlarini ham somon suvoq qilib, ustidan oqlab

qo'yishgan. Ichki devorlari esa yerdan bir metr tepadan to'g'ri burchak shaklida chuqur o'yilgan. U juda qulay bo'lib shkaf va tokcha vazifasini bajaradi. Biz uyning ko'cha tomonidagi ikkita xonasini egalladik. Orqa tomonida esa uy egalari istiqomat qilishardi. Uy o'sha paytda urf bo'lgan yarim ayvondan iborat. Ular yashaydigan xonada qishda ovqat tayyorlanadigan o'choq bor. Yozda ovqatni tashqariga qurilgan yozgi o'choqlarda pishirishadi. Ular joylashgan xonaning o'rasida to'rtburchak chuqurcha bor, ustini past bo'yli xontaxta bilan yopib qo'yishgan. Uni sandal deb atashadi. Qishda ana shu chuqurchaga o'choqdan cho'g' olib tashlanadi. So'ng xontaxtaning ustini paxta solingan ko'rpacha bilan yopib qo'yishadi. SHundan so'ng oila a'zolari sandal atrofiga to'planib, oyoqlarini uning ichiga tiqqan xolda o'tirishadi: nihoyatda issiq. Bunday paytda eshikni bemalol ochib qo'yish mumkin, tashqarida esa izg'irin sovuq.

Biz tomonda ayvon yo'q edi. Yozda so'kichak qurib, tomorqaga ekilgan oshqovoqni biz tomonga chiqarib qo'yishardi. Biz uning salqinida tushlik qilib, shu yerda uxlardik. Ana shunday kunlarning birida otam Varya bilan bozordan yog'och karavot olib kelishdi. Xovlining ichkari tomonidagi so'rtak ostiga ana shunday panjarali karavat o'rnatilgan. Lekin u juda ham katta. Unga o'ta baland qilib ko'rpato'shaklarni yig'ib qo'yishadi. Iskab topardan ximoyalanish uchun kechqurun pashshaxona qurib olishadi. Iskab toparlar mayda bo'lgani bilan juda ham zararli. CHaqqani unchalik bilinmaydi. Biroq uning o'rni keyin shunchalik qitishadiki, bir necha kun uni qon chiqincha qashlab yurishga to'g'ri keladi. Oilamizdagilar asta-sekin bunga ko'nikib ketishdi. Lekin onam ikkalamiz yoz boshlandi deguncha undan qattiq aziyat chekardik.

Biz tomonimizda kichkina tomorqa bo'lib, oshqovoqdan tashqari bu yerga pomidor, qovun va boshqa narsalar ekilardi. Tomorqaning chekkasida xojatxona joylashgan. U ham juda oddiy tiklangan: kefir idishiga o'xshab ketadigan yumaloq xandak qazib, uning ustini o'rtasi teshik taxta bilan yopib qo'yishgan. Atrofi esa odamning belidan keladigan paxsa bilan o'ralgan. Xandak to'lishi bilan yoniga boshqasini kovlashadi. Xovlining orqa tomonida bog'i bor. Bu yerda o'rik, gilos,

bexi parvarishlanadi. Bexini ilgari ko'rmaganimiz uchun una dastlab olma deb o'ylagan ekanmiz.

Ko'p o'tmay biz qo'shni xovliga, G'ofirjon SHaripov istiqomat qiladigan Qizil karvon ko'chasining 86-uyiga ko'chib o'tdik va bu uyda bir necha yil istiqomat qildik. Opa-singillarim xovlidagi aloxida uyga joylashishdi. Biz turgan xonada ovqat tayyorlanadigan plita, issiqlik bor. Uyning egasi rus tilini yaxshi bilmaydi. U temir yo'l deposida bog'bon bo'lib ishlar ekan. Mutlaqo savodsiz, shunga qaramay partiya a'zosi ekanligi bizni xayratga soldi. Yozishni bilmagani uchun menga bepul ko'mir, yog'och yoki pul olish haqida tez-tez ariza yozdirib olardi Xotini Oyimchaxon ham rus tilini bilmaydi. Ularning ikkita farzandi bor. Qumri singlim Irina bilan tengqur, biroz oqsab yuradi. O'g'li esa endi bir yoshga to'lgan.

Ota-onamiz juda samimiy insonlar. Ularning yaxshi tarbiya ko'rishganini aytmay qo'ya qolay. Ana shu sababli maxalliy aholi bilan tez til topishib ketardi. Biz ham bolalar bilan darrov do'st tutinib oldik. Tengqurlarimiz birinchi bo'lib bizga o'zbekcha so'kinishlarni o'rgatishdi, o'zimiznikiga qaraganda ularning turi ko'p ekan. Qo'shnimizning o'g'li Muzrop xali tanishib-tanishmay turib "Lenini ko'rganmisan?", "Rossiyada un qancha turadi?" deb so'radi. Aytish joizki mamlakat 1933 yilgi ocharchilikdan endigina qutilayotgan edi. Markazda yashaganimizda Rossiya degan so'zdan biz ancha begonalashib qolgandik. Bu yerda ushbu so'z yana o'zgacha ma'no kasb eta boshladi. Mahalliy aholining Rossiyaga qiziqishi baland edi. O'zbeklar eng sifatli buyumga "Nikolayniki" deb ta'rif berishardi. Bir kuni Muzropning otasi meni ichkariga chaqirib, bir nimalarni uzoq tushuntirishga harakat qildi. Men faqat "bozor" va "qozon" degan so'zlarni tushuna oldim, xolos. U meni qozonning oldiga olib borib, uning quloqlarini ko'rsatdida, imo-ishora bilan bozorga olib borishimiz kerakligini tushuntirdi. Men oldinda, u orqada bo'lib bozorga yo'l oldik. Bozorga yetgach qo'shnimiz menga ruxsat berib, qozonda to'la turgan no'xatni sotishga kirishdi. Kechki payt maxallamizda kattalar pulga oshiq otishardi. Ularning orasida no'xatchi tog'ani ham uchratdim. U yana imo-ishoralar bilan meni oldiga chaqirib, qo'limga bir so'm tutqazdi. Bu boyagi mehnatimga xaq ekan. SHeriklari esa ertalabki ishimdan bexabar, no'xotchi o'yinda

yutib olish uchun shunday qildi, deb o'ylashdi. Balki shundaydir... Bu yerda oshiq o'ynash keng ommalashgan. Buning uchun so'yilgan qo'yning oldi tizzasidan oshig'ini ajratib olishadi. Oshiq otilganida uning bir tomoni tepaga bo'lib tushadi. Har bir tomoni o'z qiymatiga ega: chija, puka, olchi, oltova. Oxirgisi eng qimmat. Odatda to'rtta oshiqda o'ynashadi. Bu o'yinda hech narsa ayab o'tirilmaydi, shuning uchun u jamoat joylarida qat'iy ta'qiqlangan. Bundan tashqari gugurt otishadi. Bunda quti uch xil holatda yerga yotadi. Eng qimmat uning tik turib qolishi. Bolalarning o'yini esa xuddi bizning oshiq o'yinimizga o'xshashdi. Bunda oshiq vazifasini yog'och soqa yoki yong'oq bajaradi. Lanka o'yini ham bor. Uni tayyorlash uchun qo'y terisining bir bo'lagi qirqib olinib, uning orqasiga tanga yoki qo'rg'oshin yopishtiriladi. Bu lankaning havoda tekkiz harakatlanishini ta'minlaydi. Usta o'yinchilar lankani chap, o'ng oyog'i, tizzasini bukkani holda oldi va orqa tomoni bilan ham tepa oladi. Lanka yerga tushib ketmagincha tepilaveradi. Ana shundan keyingina u boshqasiga o'tadi. Bu yerda "chillak", "kazaklar va qaroqchilar" o'yinlarini uchratmadim.

Ilgari biz uyida yashagan Mirzaevning yaqin yerda yashaydigan opasi va ikkita akasi bor edi. Opasining eri yozda qamoqdan chiqdi. Uning sakkiz yoshli o'g'li bu quvonchli xushxabarni nishonlash uchun ko'chaga tanga sochdi. Bolalar talashib yurib uni bitta qoldirmay terib olishdi. Xo'jayinimizning ukasi Abdurahmon men bilan tengqur bo'lib, unchalik ko'zga tashlanib turmasdi. Uning akasi Xoji esa 25 yoshga to'lgan bo'lib, she'r yozardi. U rus tilida yaxshi gapirardi. "Aqlli", "ziyoli" so'zlarni qo'shib gapirishni yaxshi ko'rardi. O'shanda ramazon oyi edi. Maxalliy aholi ro'za tutib, ertalabdan-kechagacha og'ziga hech narsa olmasdi. Xoji biz bilan tushlik qilib bo'lgach, ko'chaga chiqib og'zida chaynayotgan go'shtni qo'shnisiga ko'rsatib, maqtana ketdi: "CHO'chqa go'shti yeyapman!" Bu milliy an'analarga qarshi chiqish bilan barobar edi. U otam bilan suhbatlashish uchun biznikiga ko'p kirardi. Aftidan uni otam emas, balki singillarim ko'proq qiziqtirardi. Men Xojidan ismi-sharifimni arab imlosida yozib berishini so'ragan edim, u iltimosimni darrov bajardi. Keyin men bu so'zlarni pichoq bilan devorga o'yib tushirgan ekanman. Bu ishim nojo'ya ekanini keyin tushunib qoldim.

Yana bir holat: u Xoji bilan bog'liqmi-yo'qmi men uchun mavhum bo'lib qoldi. Otam Yangi shahardagi restoranda muzikant bo'lib ishlashini, doimo ishdan kech qaytib, onamni bezovta qilishini ilgari aytgan edim. U yarim tunda ishdan qaytayotib Piyon bozor bilan Eski shaharni bog'lab turuvchi katta yo'ldan tor ko'chaga buriladi. Osmonda charaqlab turgan oy o'xtin-o'xtin bulutlar ostiga yashirinardi. Bir joyga yetganda otamga oldindagi nuragan devor orasidan kimdir mo'ralagandek bo'lib tuyuladi. SHunda u royalni sozlashda ishlatiladigan temir kalitni ximoyalani uchun shay qilib qo'yadi. SHubhali yerga yetganda devor ortidan pichoq ko'targan kimsa unga tashlanadi. Otam kalitni chiqarib, u bilan qaroqchining boshiga soladi. Yo'lto'sar kutilmagan zarbadan tizzalab qoladi va shu holda ko'zdan g'oyib bo'ladi. Bu xodisa Xojining uyidan 100 metr narida yuz bergandi. Ikki kundan so'ng u boshini doka bilan bog'lagan holda uyimizga kirib keldi. Nima bo'ldi, deb so'raganimizda "yara chiqdi" deb qo'ya qoldi. Otamga tashlangan shu edimi yoki boshqasimi, bilmay qoldik. Ko'p o'tmay Xoji umuman bizga ko'rinmay qo'ydi.

O'zbek mahallalarida onda-sonda bo'lsa ham maxalliy aholi bilan yonma-yon yashaydigan rus oilalari uchrab turardi. Masalan, Smutinlar oilasi Qo'tan ariqning narigi tomonida istiqomat qilgan. Biz yashagan Qizil karvon ko'chasi ham shu ariqqa yonma-yon joylashgan edi. Ariqda odamlar ham, otlar ham cho'milaverardi. Smutinlar oilasi inqilobdan avval bu yerga ko'chib kelgan ruslardan hisoblanadi. U uchiga chiqqan piyonista edi. O'g'lining aytishicha ilgari ichki ishlar mahkamasida ishlagan, qo'lga tushgan bosmachilarni otib tashlashda qatnashgan ekan. Ana shunday paytda kayf, etiklari qon holatda ishdan qaytardi. SHu axvolda u Qo'tan ariqdagi tor ko'prikdan qanday o'tib olganiga xayron qolardim, deydi uning katta o'g'li Anatoliy. Farzandlari otasini sizlab turib, uni yomon ko'rishi meni ko'p bora ajablantirgan.

Turli yillarda bizga har xil toifadagi rus oilalari qo'shni bo'lgan. Bir paytlar otam bilan bitta orkestrda ishlagan pianinachi oilasi istiqomat qilgan edi. Ularni yaxshi eslay olmayman. Qo'shni uyda sibirlik temiryo'lchi, paravoz haydovchisi o'z

oilasi bilan yashagan. Uning semiz xotinini Sibirdagi fuqarolar urushida urf bo'lgan qo'shiqlari orqaligina eslab qolganman:

“ Bizga yaxshiy cheklar xujum qilishdi,
Jondan aziz qishlog'im yondirishdi...”

Bizdan bir uy narida, maxallada yagona bo'lgan bolaxonali uyga Grebenʼshikovlarning ko'p bolali oilasi joylashdi. Ular ham Sibirdan kelishgandi. Oila boshlig'ini negadir eslay olmayman. Qizlarining biri g'oyatda sohibjamol edi. SHahar bog'idagi xovuzda cho'milganida albatta ikki-uchta o'zbek uni yeb qo'ygidek tomosha qilayotgan bo'lardi. Mendan ikki yosh katta bo'lgan o'rtanchi o'g'li bilan men do'st tutindim. U Eski shaharni radiolashtirishda slesarmi, montyormi bo'lib ishlagan. Boshqa qo'shnilar ham bo'lgandi, biroq hammasini eslab qolmagan ekanman.

Yana ortga chekinsam.

Biz ko'chib kelganimizdan keyin bir oydan ozroq vaqt o'tib, aniqroq qilib aytganimda 1934 yilning 12 iyunida eng kichik ukamiz tug'ildi. O'zini doimo xushchaqchaq olib yuradigan otam diniy kitob varaqlab unga mos ism qidira boshladi: Pud, Komod, Afrikanga kelib to'xtalgan bo'lsada, Georgiy deb ism berishdi. Keyinchalik uni Gotʼka deb atay boshladik. Gotʼka O'rta Osiyo muxitiga bizdan ko'ra tez moslashdi. Tashqi ko'rinishidan ham o'zbeklarga o'xshab ketardi. Yoz oylarida Qo'tan ariq bo'yidagi eski yo'l qalin tuproq bilan qoplanardi. Yozda qachon qarasang bolalar suvdan chiqib, tuproqqa bulanib yotgan bo'lardi. Ularning orasida albatta Gotʼkani uchratardik. U o'zbek qo'shnilarimiz hayoti bilan yashab, ularning o'yinini o'ynardi, tili, fe'l-atvorini o'zlashtirib borardi.

Endi yashash tarzimiz, turmushimiz haqida gapirsam. Onam kunlik ovqatni xovlidagi ochiq o'choqda tayyorlardi. O'choq bir nechta g'ishtni taxlashdan hosil qilingan bo'lib, uning ustiga kastyul, qozon yoki choynak qo'yish mumkin edi. Ostidan past qilib olov yoqilardi. O'tinni bozordan sotib olardik. O'n dona g'o'la bir so'm turardi. SHundan bo'lsa kerak xozirgacha men o'tinni tejab ishlataman. Bundan tashqari kerosinka(primus)lar bo'lardi. Kerosin ham bozordan olib kelinardi. Fanarnoe maslo deb ham atashardi. O'zbeklar F harfi o'rniga P harfini

ishlatib panaryog' deb atashgan. Panaryoqni asosan bolalar sotishardi. Elektr yo'q edi, o'rniga chiroq yoqishardi. Unga pilik va panaryog' kerak bo'lgan. Biroq radio bo'lardi. U orqali ertalabdan kechgacha faqat o'zbek musiqalari berilardi, ko'nikishimiz juda qiyin bo'lgan. Qishda esa uyda plitkada ovqat tayyorlashgan. U bilan uyni ham isitish mumkin edi. Yoqilg'i sifatida chigit po'chog'i(sheluxa) ishlatilgan. Uni ulgurjasiga maxalliy yog' zavodidan sotib olish mumkin bo'lgan. Po'choq yaxshi yonardi. Faqat chirib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak, aks xolda portlab ketishi mumkin edi. Toshko'mir o'ta taqchil bo'lgan, o'tin haqida gapirish ham mumkin emasdi. Ichish, ovqat qilish va cho'milish uchun suvni Qo'tan ariqdan olganmiz. Faqat qishdagina u tiniqlashardi. Boshqa paytda loyqa bo'lib oqardi. CHelakda tindirgandan keyin ichish mumkin edi. Ayrim paytda tushlikni yog' zavodining oshxonasidan olardik. Yilning istalgan vaqtida dasturxonimizda meva-chevalar turardi.

O'rta Osiyo mevalariga maqtashga til ojiz! Xilma-xilligi, ta'mining mazaligi jihatidan na Kavkaz, na Qrim, na Moldaviya mevalari ularga teng kela oladi. Xidi butun uyni tutib, og'izda erib ketadigan tilni yorar qovunlar, ham shirin, ham nordon, ham danakli, ham danaksiz, oq, qora, qizil ranglarda tovlanuvchi "kelinbarmoq" uzumlar, turli xajm, turli rang, turli ko'rinishdagi xushbo'y shaftolilar, shirasi tomib turadigan anjirlar, olxo'ri, nok, gilolar shu zaminda yetishtiriladi. Tarvuzni yeb bo'lganingizdan keyin uning shirasi shu qadar o'tkirki, yuvmasangiz barmoqlaringizni bir-biriga yelimdek yopishtirib qo'yadi. Bir necha yildan so'ng Moskvaga qaytganimda o'rta polosada yetishtirilgan mevalarni og'zimga ololmay yurdim. Ular nihoyatda bemaza edi.

Andijonga kelganimizning birinchi yili, ya'ni 1934 yilda ocharchilik oqibatlarini yaqqol sezilib turardi. Otam mahrum qilinganlardan edi. Xozir hech qanday ma'noga ega bo'lmagan ushbu so'z o'sha vaqtda boshqacha eshitilardi. Bunday toifadagi kishilar saylash huquqidan ham mahrum qilinardi. Buni kimga ham keragi bor, o'sha paytdagi saylovlarning qanday o'tgani ko'pchilikka ayon. Hamma gap mahrum etilgan degan tamg'aning peshonaga bosilishida edi, xuddi negrning tanasi qora bo'lganidek. Ushbu toifadagi kishilar past tabaqa hisoblanardi.

Kartochka tizimi yo'lga qo'yilgan paytda bizga mahrum qilinganlar uchun chiqarilgan kartochkalarni berishgan. To'g'risi bu boshqa kartochkalardan qanday farq qilganini bilmayman. Biroq bizlar uchun maxsus do'kon tashkil qilingan bo'lib, u shaharning biz turgan joyga qarama-qarshi tomonida joylashgandi. Qiyinchiligi shunda ediki, bir kunda xatto uch marta borib-kelishimga to'g'ri kelgan. Bir yildan keyin kartochka tizimini bekor qilishdi. Lekin non uchun uzundan-uzoq navbatda turish saqlanib qolgan edi. O'sha paytda butun ittifoqda bo'lgani kabi bu yerda ham "chet elliklar uchun" deb yozib qo'yilgan "torgsin" do'koni ochilgan. Unda faqat oltin, kumush va valyutaga savdo qilardi. Agar Xitoy konsulligini hisobga olmaganda Andijonda chet elliklar yo'q edi. Oltin va kumush esa yashash qanchalik qiyin bo'lmasin odamlarning qo'lida bor edi. SHuning uchun bu yerda har kuni savdo-sotiq qizigandan-qizib, odamlarning qo'lidagi nodir metallarni sug'irib olishardi. Bir kuni o'sha torgsinni boplab o'marishdi. Faqat bir yildan keyingina o'g'rilarini ushlashgan.

Biz Zagorskka qaraganda bu yerda to'kin yashay boshladik. Tikuv mashinasi, velosiped, radiopriemnik sotib oldik. Otam velosipedga o'tirib "Yigirma besh yildan keyin birinchi marta egarga o'tiryapman" deb quvongani esimda. SHuni aytish kerakki, O'rta Osiyoda velosiped Rossiyaga nisbatan keng ommalashgan. CHunki bu yerda undan yil davomida foydalanish mumkin. Bunga yana bir misol. Bir kuni temir yo'l vokzaliga katta partiyada velosipedlarning keltirilishi butun shaharni qalqitib yubordi. Kechqurundan boshlab odamlar markaziy ko'chada joylashgan "Sport tovarlari" magazini yonida navbatga turishdi. Ertalabga kelib bu yerga odam sig'may ketdi. Do'kon ochilgach velosiped uchun cheklar "Park" kinoteatrda sotilishini e'lon qilishdi. U bu yerdan ikkita kvartal narida joylashgan edi. Ko'p o'tmay chekni olib kela boshlashdi. Yarim odam shu yerda qolgandi. Bir zumda to'polon boshlandi. Do'kon derazalari chil-parchin bo'ldi. SHunda yangi velosiped olgandan ko'ra eskisini mingan afzal ekanini tushunganman. Otam restorandagi orkestrda ishlash bilan birga bu yerdagi akademik teatr bilan ham hamkorlik qilardi. Oilaviy arxivimizda otamning qo'li bilan yozilgan quyidagi ariza saqlanib qolgan:

Andijon davlat o'zbek teatri direktoriga V.S.Trubetskoydan

ARIZA

“Sevgi va makir” dramasi musiqasi uchun notalarni ko’chirib olishga ruxsat berishingizni so’rayman. Chunki menda uning bironta nusxasi qolmagan.

26.07..... V.Trubetskoy.

Otamning musiqiy yo’nalishdagi boshqa bir faoliyati ham bo’lgan. U millati rumin bo’lgan skripkachi Filipp Xarkoti bilan sayyor orkestr tashkil etishgan edi. Ushbu orkestrning Farg’ona vodiysidagi faoliyatini tasdiqlovchi bir qancha yozma ma’lumotlar saqlanib qolgan. Mana, ulardan biri:

F.Xarkoti boshqaruvidagi jaz-orkestri faoliyati haqida

MA’LUMOT

Mazkur yilning 5 mart kuni jaz-band ITR kul’tbazasida ikki marta, 6 mart kuni Quvasoy tsement zavodi ishchilar klubida bir marta kontsert berdi. 6-kuni kunduzi bolalar uchun kontsert tashkil etildi. Barcha kontsertlar muvaffaqiyat bilan o’tdi, artistlar yaxshi ijro etishdi. Tinglovchilar orkestr ishidan mamnun.

Madaniy targ’ibotchi: Rednyuk

Kotib: Pyatakov

7 mart, 1936 yil.

Oilamizda otam va Varyadan tashqari Grisha va Tatyalar ham ishlaydigan bo’lishdi. Grisha madaniyat va istiroxat bog’ida kinomexanik bo’lib ishlardi. Biroq tez fursatda ishni tashlab, Toshkentga kinomexaniklik kursida o’qish uchun ketdi. Kursni tamomlagach uni Pomir traktidagi Gulcha degan joyga yuborishdi. U yerda biroz ishlab Andijonga qaytib keldi. Ko’p o’tmay Andijondan 40 kilometr narida joylashgan Stalinsk(SHahrixon) rayon markaziga ko’chib ketdi. U yerda yangi klub ochilgan ekan, Grisha shu yerga kinomexanik bo’lib ishga kirdi. Men poezdda, velosipedda uning oldiga bir necha marta borganman. Varya esa Andijonda yashagan uch yil mobaynida juda ko’p joylarda faoliyat yuritdi: quyunchilik bo’yicha instruktor, chorvachilik stantsiyasida xronometrchi, gren zavodda yigiruv tsexi brigadiri bo’lib ham ishlagan. So’ngra shahar fizkul’turachilar sovetida ish boshqaruvchi bo’lgan. Ishida 175 so’mdan 200 so’mgacha maosh olgan.

Mana uning o’qish juda qiyin bo’lgan qoralamalarida saqlangan ayrim satrlar:

CHiroqning oldida boshingni egib,
Xat yozganingda ko'zlaring chaqnab
Men seni yaxshi ko'raman.
Sen esa na ko'rding, na eshita olding,
Oxista shivirlab qilgan orzuim.

Yoki:

Uyqu kipriklarim namlab o'tadi.
Bilaman, tushimga nima kirishin-
Quyosh, sen va yana o'rmon
Va ohista meni boshlab ketasan,
Tikka tushgan so'qmoq yo'l bo'ylab.

Tatya qaerda ishlaganini eslay olmadim. Oxirgi bir yarim-ikki yil ichida rabfakka qatnaganini eslayman. Otam biz kelgunimizcha baliq ushlaydigan savat sotib olgan ekan. U tol novdalaridan to'qiladi. Yoz kunida u, Grisha, Volodyka va men baliq ovlash uchun poezdga o'tirib Eski shaharning orqasida joylashgan Andijon-2 stantsiyasiga bordik. Temir yo'l shaharni aylanib o'tar edi. Maxalliy aholi ushbu stantsiyani Xarkop deb atashar ekan. Bu qiziq nom Andijon-Харьков so'zidan kelib chiqqan ekan. Stantsiyadan ikki-uch kilometr narida daryo oqadi. Daryoga borish uchun dastlab temir yo'ldan yurib ko'priikka yetib oldik, so'ng qirg'oq bo'ylab harakat qildik. Yo'lda paxta dalalari ko'rindi. Xojatga ishlatish uchun lo'ppi chanoqlarda turgan momiq paxtalarni terib oldik. Belgilangan joyga kelgach, savatni suvga tashlab, ortimizga qaytdik. Ertasi kuni uni tekshirgani daryoga Volodya ikkalamiz boradigan bo'ldik. Kech kirib qolgandi. Savatga hech narsa ilinmabdi. Yana suvga tashlab ortimizga qaytdik. Bu safar yo'limizni yaqin qilish uchun sholizor oralab ketdik. Ular to'rtburchak, uchburchak shaklida bo'lib, xajmi 30x30 metrdan oshmasdi. Har biri morzasigacha suv bilan to'ldirilgan. Uning polidan yurib ketdik. So'ng qamishzor, undan keyin uzum ekilgan maydonlar va yana qamishzordan chiqdik. Quyosh ufqqa bosh qo'yib, atrofni iskabtoparlarning g'ing'illagan tovushi tuta boshladi. Tinmay baqalar qurillardi. Biroz yurib tanish ko'priikka chiqib oldik. Sen qilaman deysan o'ttiz, xudoyim qiladi to'qqiz. Biz

vaqtni tejaymiz deb yaqin yo'limizni uzoq qilib olgan edik. Stantsiyaga yetib kelganimizda poezddan asar ham qolmagan ekan. Qop-qorong'i tunda uyga piyoda yo'l oldik. Yo'l notanish, lekin Andijon II stantsiyasi bilan Eski shahar o'rtasida boshqa yo'l yo'qligi uchun adashish mumkin emasdi. Bir joyda piyoz ekilgan maydonga duch keldik. Piyoz shunchalik katta ediki, ulardan bir nechtasini yulib oldik. Biroq yaqin choyxonada o'zbeklar bizni qo'pollik bilan to'xtatib, qo'limizdagi piyozni tortib olishdi. Albatta o'zimiz aybdor edik. Yarim tunda uyga yetib keldik. Lekin qanday qilib ikkinchi bor savat tekshirgani borganimizni eslay olmayman.

SHuni aytish kerakki, o'zbeklar yetishtirilgan barcha noz-ne'matlarga o'ta hurmat bilan qaraydi. Yerdan yotgan bitta don, kichkina non uvvog'i yoki paxta tolasini ko'rsa darrov ko'ziga surtadi va qushlar yesin deb oyoq osti bo'lmaydigan joyga olib qo'yadi yoki baliqlarni haqi deb suvga tashlaydi. Mavsumda yo'l bo'yidagi daraxtlarga to'kilgan paxtalarni solish uchun maxsus yashchiklar o'rnatib qo'yishadi. SHunda bu xojatga ishlatadigan oddiy narsa emasligini tushundik. Bu an'ana xozir ham O'zbekistonda saqlanib qolganmi, yo'qmi bilmadim.

Biz bolalar otam bilan ikki-uch bor shahar tashqarisidagi soy yoqalab sayrga chiqqanmiz. U juda tez oqadi. Ayniqsa qiyalik joylarda suv tizzadan kelsa ham muvozanatni ushlab turish qiyin. Suv belga chiqqanda esa darrov odamni oqizib ketadi. Oqimga qarshi yurib soydan ajralib chiqqan ariqqa duch keldik. U sekin oqardi. SHuni ta'kidlash kerakki, bu yerdagi ariqlar sug'orma dehqonchilikning bir mo''jizasi, hayot bulog'idir. SHaharga yaqinlashgan sari ariqlar soni ko'payib, soydan yana ham ko'proq suv ajratib olinadi. SHu tarzda soy tobora maydalashib boradi. Soy asl xolida oqqan joyda esa bog', dala va tomorqalar deyarli yo'q, faqat qurigan cho'p-o'lanlar va yantoqzorlardan iborat tepaliklar majud. Andijonsoy va Qoradaryoga o'xshash katta suv havzalarida charxpalaklarga ko'zingiz tushishi mumkin. Insoniyat tomonidan kashf etilgan birinchi mashina hisoblangan ushbu charxpalaklar parrakli g'ildirakdan iborat bo'lib, atrofiga sopol ko'zachalar o'rnatilgan. Suv g'ildirak tagiga tegib, uni aylantiradi. Ko'zachalar suvga to'lib, uni

yuqoriga olib chiqadi va tarnovga quyadi. CHarxpalaklar odatda ulkan xajmga ega bo'ladi. Otam maktublarining birida O'rta Osiyo ariqlari haqida yozgan edi.

O'zimiz yashagan va ko'rgan ajoyib yurt haqidagi hikoyamizni yakunlashdan avval bu yerdagi diqqatga sazovor boshqa joylar, ayniqsa Akmal Ikromov(O'zbekiston kompartiyasi MK sekretari, keyinchalik xalq dushmani deb ayblangan) nomidagi madaniyat va istiroxat bog'i haqida so'z yuritmoqchiman. U Eski shaharda konstruktivizm uslubida qurilgan katta zamonaviy bog' hisoblanadi. Ushbu maskan yozgi teatr, yozgi va qishki kinoteatrlar, stadion va ko'plab pavilyonlarni o'z ichiga olgan. Har biri o'ziga xos tarzda qurilgan edi. Masalan, kulgi xonasini qo'rqinchli basharani o'zida aks ettirgan odam kallasi shaklida qurishgan. CHoyxona esa ulkan burgut qanotlari ostiga joylashtirilgan. "Pivo-yaxna suv" do'koni katta bochkani eslatadi. Orkestr uchun aloxida joy ajratilgan bir nechta raqs maydonlari ham bo'lgan. Bog' markazidan cho'milish xavzasi o'rin olgan bo'lib, to'g'ri burchakli bu ulkan yashil piyolaning ikki chetiga yog'ochdan suvga sakrash uchun qurilgan minoralar o'rnatilgan.

Endi o'qishim haqida. Zagorskda 6-sinfni tamomlab, sinfdan-sinfga o'tish imtixonlarini topshira olmagan edim. Bu yerda jiddiy tayyorgarlik ko'rishga to'g'ri keldi. Yangi shaharning eng chekkasida joylashgan maktabga yozilib, kuzgi imtixonlarga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshladim. Nihoyat imtixonlarni yaxshi topshirib, 7-sinfda o'qiy boshladim.

Ukalarim Volodьka va Seryojka o'qiydigan maktab uyimizga yaqin edi. U o'zbekona qurilgan bo'lib, oldi ayvon, shifti milliy naqshlar bilan bezatilgan. Ushbu naqshlar ko'chadan ham ko'rinib turardi. Ushbu ko'cha ham Fayzulla Xo'jaev nomi bilan yuritilgan. Mening maktabim esa revolyutsiyadan ilgari gimnaziya bo'lib, unga 2-son berilgandi. Maktabimiz kulrang g'ishtdan tiklangan bo'lib, atrofi qalin dov-daraxtlar bilan qoplangan. SHaharda yana bitta o'n yillik rus maktabi bo'lib, negadir u temiryo'lchilar maktabi deb atalardi. Maktabim uzoq bo'lagani uchun ertalab yog' zavodining gudogi bilan uyg'onardim. O'shanda bu baland tovushlar soat vazifasini ham o'tagan.

Andijonda tez-tez yer qimirlab turardi. Ana shunday zilzilalardan biri to'lin oy chiqqan oqshomda ro'y berdi. Dastlab kuchli, so'ng sal kuchsizroq bo'lganini xis qildik. SHu vaqtning o'zida chor-atrofni shovqin qopladi. Eski shahar axolisi qo'liga kirgan qozonmi, kostryulmi, tinmay dang'llatardi. Uyning egasi bizga katta ilon yerni qimirlatib, endi oyga xujum qilayotganligini, faqat shovqin-suron chiqarib uni qo'rqitish mumkinligini aytdi. Oy yuqori ko'tarilib, oppoq rangga kirishi bilan shovqin to'xtadi. Yer qimirlashni maxalliy axoli uning ovozigaga taqlid qilgan xolda "shatir-shutur" deb ataydi. Andijonda yashagan paytimizda bunday zilzilalarning ko'pini ko'rdik. Aytishlaricha eng kuchli yer qimirlashi Andijonda 1906 yili ro'y bergan ekan. O'shanda shahar butunlay vayron bo'lgan, faqat cherkovgina buzilmay qolgan.

Yettinchi sinfni muvaffaqiyatli tamomlab xatto mukofotlangan bo'lsam ham meni sakkizinchi sinfga qabul qilishmadi. Bunga otamning ish joyidan olib kelgan ma'lumotnomasi sabab bo'ldi. Unda "kelib chiqishi sotsializmga yot" deb yozib qo'yilgan edi. SHundan so'ng xo'jayinimiz meni temir yo'l deposiga joylab qo'yish taklifini bildirdi. Otam bu taklifni qo'llab, depodan keyin texnikumga, so'ng institutga kirishim mumkinligini aytdi. Parovoz deposiga kirmoqchi edim, bo'lmadi. SHundan so'ng vagon deposiga joylashdim. Ko'p o'tmay mo''jiza ro'y berdi. O'sha spravkaga qo'yilgan rezolyutsiyada Narkomprosning roziligiga ko'ra o'qishni davom ettirishim mumkinligi qayd etilgandi. Yangi 1936 yilga o'tib M.B.Kalinin tomonidan imzolangan ta'lim jarayonidagi ijtimoiy cheklovlarni bekor qilish haqidagi farmon e'lon qilindi.

1936 yilning yozida 31-son bilan yuritiladigan yangi o'rta maktab ochildi. Uni Piyon bozoriga yaqin yerda, Eski va Yangi shahar chegarasida qurishdi. Unga yaqin yashovchi o'quvchilar shu maktabga o'tkazildi. Men ham mazkur maktabning 9-sinfiga qatnay boshladim.

Otam bo'sh paytida adabiy ish bilan shug'ullanardi. U maxalliy aholining cho'kkalab o'tirish odatini o'zlashtirib oldi. Uning ana shu xolatda o'tirib ijod qilishi ko'z o'ngimdan sira ketmaydi. Atrofida bolalar chug'urlashsa ham u hech narsaga e'tibor bermay yozishda davom etardi. U o'ziga xos tabiatli inson edi. Ko'chada

galife shim, yoqasi yo'q yengil oq ko'ylak kiyib yurardi. Boshidan esa malina do'ppi tushmasdi.

Otam shu yerning hayotidan olingan hikoyalar yozardi. Ularda bosmachilar, chayonlar aks ettirilgan. Ko'p vaqtini "Sovut kiygan askar" deb nomlangan memuar yozishga bag'ishlagan.

Opam Varyada ijodiy qobiliyat ancha barvaqt shakllandi. Zakorksda, ayniqsa Andijondalik paytida u juda ko'p yozardi. Bu yerda ipachilik tarixi bo'yicha ham ko'p material to'plagan. Opam tarixiy mavzuda roman yozishga ham taraddud ko'rayotgan edi. Bir kuni otam va Varya uyga juda kech qaytishdi. Men ularning suhbatini eshitib qoldim. Otam Varyaga Nikolay II ni Tobolskdagi surgundan qutqarish jarayonida ishtirok etganini gapirib berdi. O'shanda Nikolay bilan aloqa o'rnatishgan ekan. Podsho qutqarish jarayoni qon to'kilishlarsiz amalga oshirilishi talabini qo'ygan. SHuning uchun zaharli gazdan foydalanilgan. Bilishimcha, Nikolay II ni ozod qilishga qaratilgan harakatga jiddiy tayyorgalik ko'rilmaganligi sababli u natija bermagan. Eng qizig'i otamning bu siri tegishli organlar uchun ham sirligicha qolgan.

Varya 1933 yili qamoqqa olinishi va surgun qilinishiga qaramay tom ma'nodagi sovet kishisi edi. U Leninning olti jildli, Marksning ikki jildli kitoblarini sotib olgan. 1936 yilning oxirida uning uchun surgun muddati tugadi va u Moskvaga ketishga tayyorgarlik ko'ra boshladi.

Tatya esa rabfakda o'qirdi. SHu orada u o'ta qisqa vaqt Andijon teatrida, so'ng qaysidir mahkamada chizmakash bo'lib ishladi. Tatya rabfak talabasi Leonid Yakushev bilan yaqin munosabatda edi. Uning qaylig'i o'qish bilan birga grenzavodda mexanik bo'lib ishlardi. Yangi bozorda, Engels ko'chasi, 2-uyda yashagan. Ko'p o'tmay Tatya uning uyiga ko'chib o'tdi.

Ana shu suronli yilning yozida biz Varya bilan Grishani ko'rgani SHahrixonga bordik. CHoyxonada tamaddi qilgach, Grishaning qandaydir sherigi bilan soyga cho'milgani bordik. O'shanda Varyaning quyoshda qoraygan ozg'in tanasini, g'amgin chehrasini eslab qolganman. Ko'p vaqt o'tmay u butunlay g'oyib bo'ldi.

Bolaligimda men Varyadan ko'ra Taty bilan inoqroq edim. Oxirgi paytda Varya bilan yaxshi munosabatda bo'la boshladim. Tug'ilgan kunlarimizda bir-birimizga sovg'a-salomlar berardik.

Voqeysliklarga boy bo'lgan 1937 yil boshlandi. Papanin boshliq guruh samalyotlari birinchi marta SHimoliy polyusga qo'ndirildi. CHkalov, Baydukov va Belyakovlar SHimoliy polyus tepasidan Amerikaga uchib o'tishdi, ko'p o'tmay Gromov ushbu qahramonlikni yana qaytardi.

1937 yili hukumatning teroristik siyosatida kezsini o'zgarish ro'y berdi. Gazetalar xalq dushmanlarining fosh etilishi va yo'q qilinishi haqida tinmay xabarlar berib turardi. Ularning ko'pi taniqli kishilar edilar. Hamma joyda Stalinning 1937 yil 3 martdagi VKP(b) MKda aytgan quyidagi so'zlarini tinimsiz takrorlashardi: “CHet el josuslik tashkilotlarining qo'poruvchilik va josuslik harakatlarini o'zida ifoda etgan trotskiychilar allaqachanoq ishchilar sinfining siyosiy rahnamosi bo'lishdan to'xtaganligini partiyadosh do'stlarimizga tushuntirishimiz kerak. Ular ishchilar sinfining manfaatini himoya qiladigan aniq g'oyaga hizmat qilishdan to'xtab, chet el josuslik organlari foydasiga ishlovchi, mutlaqo g'oyasiz, tuturuqsiz zararkunandalar, diversantlar, josuslarga aylanib qolishdi. Zamonaviy trotskiychilarga qarshi kurashni endi baxs-munozara shaklida emas, balki ularni ildizi bilan qurutish va tor-mor qilish orqali amalga oshirish kerakligi tushuntirilsin”.

Tegishli organlarga “tushuntirish” ishlarini olib borish uchun aniq topshiriqlar berildi. Andijon NKVD tomonidan chaqimchi va sotqinlardan u yoki bu shaxs trotskiychilarga aloqadormi-yo'qmi, deb so'ralishi ham shundan edi. Gazetalarda Tuxachevskiy, Yakir, Uborevich, Kork, Putna, Pryamakov va boshqa yirik sarkardalarning dushmanligi va xoinligi haqida xabarlar paydo bo'la boshladi. Otam bu familiyalarni yaxshi bilardi, ular qizil armiyaning yuqori xarbiy boshliqlari edilar. Boshlangan yangi terrorga qarab turib otam ertaga o'zini nima kutayotganligini bilganmikin?

Otamning 1937 yildagi delosiga birinchi may kuni yozilgan arizasi tikib qo'yilgan. U shunday so'zlar bilan boshlanadi: “So'nggi oylarda menga ma'lum

bo'ldiki, NKVDning mahalliy sektori mening shaxsimga qiziqish bildirib boshladi". Arizadan tushunish mumkinki, organlar chaqimchilardan Trubetskoy trotskiychilarga aloqador emasmi, deb so'rashgan. Otam o'shanda atrofida qora bulutlar to'planayotganini bilgan.

Avval aytganimdek, shu yilning yozida Varya Moskvaga ketishga tayyorgarlik ko'rdi. Lekin u tezroq keta qolmadi. Bir qaraganda bunga xojat ham yo'q edi. Chunki 1934 yili "Rossiya milliy partiyasi" jinoiy ishi bo'yicha o'tgan qirq nafarga yaqin kishi organlarning qat'iy xhisobida turgan. Ular 1937 yili yana qamoqqa olindi, ko'plari otuvga hukm qilindi.

1937 yilning 29 iyulida mash'um voqea yuz berdi. Nimadir bo'lib men shaharga tushgan edim, uzoqda oq ko'ylak va malina do'ppi kiygan otamga ko'zim tushdi. O'shanda uning boshqa ko'rmayman deb o'ylamaganman. Kechki payt uyimizga grajdan kiyimidagi ikki kishi otam va Varyani qamoqqa olish haqidagi order bilan kelib, hamma yo'qni tintuv qilishdi. Uyda onam va biz bolalar bor edik. Varya kunduzi qayoqqadir ketgan edi. Tekshiruvchilar asosiy e'tiborni xat va qog'ozlarga qaratishdi. Nihoyat tintuv tugadi. Ko'plab qog'ozlar, asosan otam va Varya tomonidan yozilgan xatlar va yozishmalarni tortib olishdi. Uzundan-uzoq protokol to'ldirib, uni imzolatish uchun menga berdi. Protokolda otamning qo'lyozmalari orasidan fashistlar belgisi tushurilgan xat topilganligini qayd etishibdi. Bu tuxmat edi.

Bir-ikki kundan so'ng Grishaning oldiga borib otamning qamalganini aytdim. Yaqinda Varya bilan uning yoniga kelganimizni esladik. Grisha o'shanda o'zini nima kutayotganini sezmagan edi.

Bo'lib o'tgan voqeadan so'ng Tatyana qaylig'i Leonid Yakushev bilan biznesiga tez-tez keladigan bo'lishdi. Leonid meni grenzavodga ishga joylashtirib qo'ydi. Qiladigan ishim baland minoradagi bochkaga suv to'ldirib turishdan iborat edi. Bir oycha vaqt o'tib Leonid rangi oqargan xolda kelib, Tatyani NKVDga chaqirishganini aytdi. Kechga yaqin mahkamaga bordik. Uni so'roq qilishayotgan ekan. Uzoq vaqt kutdik. Lekin qo'yib yuborishmadi. Tashqariga olib chiqib yengil avtomashinaga o'tirgizishdi. Bil'din ko'chasi bo'ylab turmaxona tomonga harakat

qilayotgan mashina bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Xozir unchalik eslay olmayman, ko'p o'tmay uyimizga turmadan chiqqan bir ayol kelgan edi. U Tatyana bilan bitta kamerada o'tirgan ekan. Tatyana o'sha ayolga tergovchilar otasi va Varyaga qarshi yolg'on ko'rsatma berishga majburlashganini, aks xolda ozodlikka chiqmasligini aytishganini gapirib bergan ekan.

Men Tatyana qamoqqa olinganini yetkazish uchun Grishaning oldiga bordim. "Demak, ular menga ham yetib kelishadi" dedi u ma'yus xolda. Aytganidek hech qancha vaqt o'tmay uni olib kirib qo'yishganligi haqida xabar keldi. Men yana SHahrixonga bordim. Grishaning yordamchisi ham, klub duradgori ham qamalish tafsiloti haqida jo'yali bir gap aytisholmadi. CHerdakka chiqdim. Grisha shu yerda yotardi. U boriga qanoat qilib yashashga o'rganganligi bois deyarli hech narsa oshirmagandi. Sochilib yotgan eski kiyimlardan chiqayotgan akamning hidini xozir ham unutganim yo'q. Qaytishim juda qiyin bo'ldi. Velosipedda Asaka(Leninsk) temir yo'l vokzaliga yetib kelganimda daraxtlar ortidan ketib borayotgan Moskva poezdidan chiqayotgan tutunga ko'zim tushdi. Bu poezd har kuni Andijondan qaysi vaqtda jo'nashi menga yod bo'lib ketgandi. Ortidan tikilib qolarkanman, ushbu poezd go'yo mening barcha umidlarimni, ushalmagan orzu-havaslarimni o'zi bilan olib ketayotgandek tuyuldi.

Etimlikning tashvishli kunlari boshlandi. Oilamiz boshiga tushgan kulfat onamni nuratib qo'ydi. U ikki gapining birida "Otang endi qaytib kelmaydi" deyaverardi. Ko'p o'tmay yangi kvartiraga ko'chdik. U ham Qizil karvon ko'chasida joylashgan edi. Kuz payti uyimiga militsioner tashrif buyurib otam va Tatyana narsalarini olib ketgani kelganini aytdi. Qiyin ahvolda yashardik. Otamning yangi sotib olgan shim va botinkasi endi menga o'tgandi. Onam ulardan hech narsa qolmaganini, vilonchelni esa bolalar o'rganishayotganini aytdi. SHunda militsioner ayyorlik qilishga o'tdi: "Qanaqasiga axir, eringiz muzikant bo'lsa. Borgan joyida tirikchilik o'tkazishi kerak-ku, axir!". Biz uning gapiga laqqa tushibmiz. Ko'p o'tmay Lenin ko'chasidagi magazinning chang oynalari ortiga sotish uchun qo'yilgan violonchель, surnay, shuningdek otamning shimi, botinkasi va katak ko'ylagiga ko'zimiz tushdi.

Ancha keyin, 1938 yilda hukmni eshittik. Otam va Varyani xat yozish xuquqidan mahrum etilgan xolda o'n yil muddatga olis lagerga surgun qilishibdi. Faqat Xrushchev zamoniga kelgandagina angladim, bunday ommaviy qirg'inlar Stalin xukmronligining obro'siga putur yetkazishi va ishonchsizlik uyg'otishidan qo'rqib otilganlarga shunday xukmni o'ylab topishgan ekan. CHunki o'n yil ichida bu yo'qolgan odamlarni birov qidirib ham o'tirmaydi. U yerda ko'ribdi, bu yerda uchratibdi degan mish-mishlar esa sira to'xtamagan. Akam Grisha 1947 yili Sibir lagerlaridan qaytgach bitta odam otamni Kolim lagerlarida ko'rganini, u orkestrda muzikant ekanini aytganini gapirib berdi. "Xat yozish xuquqidan mahrum etish"dan kutilgan maqsad ham shu edi.

1938-39 yillar begunox odamlarni ommaviy qirg'in qilish davri bo'ldi. Ularni ochiqchasiga ham, yashirin xolatda ham otib tashlashaverardi. O'sha yillarda chiqqan gazetalarda xalq dushmanlari, fosh etilgan josuslar, ularni aniqlab bergan vatanparvarlar haqida ko'p yozilgan. Maktabimizda o'tkazilgan mitingda xali bola bo'la turib marshal Tuxachevskiy boshchiligidagi eng yuqori tabaqadagi harbiylarning otilishini ma'qullaganimizni, ularning portretini darsliklardan yirtib tashlaganimizni yaxshi eslayman. Ko'cha, kolxoz va posyolkalardan respublikaning birinchi rahbarlari bo'lgan Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jaevlar nomlarining olib tashlanishi bilan bog'lik jarayonlar ham juda qimmatga tushgan.

Bunday noxaqliklar va zo'ravonliklardan so'ng ikkinchi jahon urushi davrida vlasovchilar, ukraina harbiy qismlari, Don va Kuban kazaklari, turkiston legioni, tatarlar, kavkazliklarning nemislar tomoniga o'tib ketganligidan ta'jublanib bo'ladimi? Ilgari hech qachon, hech bir urushda bunaqasi bo'lmagan. CHunki, "O'rtoq Stalinga rahmat!" deydigan davrlar o'tib ketgandi. Otam, Grisha, Varya, Tatyalar nima jinoyat qildi, ular davlat uchun nega xavfli degan savolni o'rta qo'yishning o'zi mantiqsizlik. Terror hamma zamonlarda bo'lgan, lekin bu davrda u o'zining eng yuqori nuqtasiga ko'tarilgan edi.

Onam turmada yotgan Grisha va Tatyaga yegulik tashirdi. Maxbuslar boshqa yerga yuborilarkan degan gap tarqalgach, onam temir yo'l vokzaliga chiqadi. Uch yoshli Gotkani ko'tarib stantsiyaga borganida olomonning ichida Grishani ko'rib

qoladi. Kuzatuvchilar ko'p bo'lgani uchun qorovullar xotinlarni xaydab yuborishadi. Keyin biz Grishaning Tomskdagi lagerdan yozgan xatlarini ola boshladik.

Grishaga ota-onasini, opa-singillarini, ukalarini ko'rish nasib etmadi. Faqat 10 yildan so'ng og'ir kasal holda "yuzbirinchi" bo'lib lagerdan qaytdi. "Yuzbirinchi" deyilishiga sabab, u Moskvadan kamida 100 kilometr narida yashashi kerak edi. Faqat 1955 yildagina to'la oqlandi. Kichik Yaroslavl'da yashab, 1975 yili Moskvada vafot etdi.

Tatya uchun surgun xalokatli yakunlandi. U lagerning badiiy havaskorlik ansamblida qatnashib, guruh tarkibida lagerma-lager yurib kontsert berishardi. Uning yurak faoliyatida yetishmovchilik kasali bo'lganligi sababli axvoli o'ta og'irlashadi. 1943 yili uni "akt" qilishadi. Ya'ni yashab ketishiga umid bo'lmagan kasal maxbuslarni "akt" qilib, qamoqdan bo'shatishgan. Bundan maqsad ular lagerda vafot etib, GULagning statistik ko'rsatkichlarini oshirib yubormasligi kerak edi. U 24 yoshida kasallikdan vafot etadi.³

Tatyaning eri Leonid Yakushev sil kasaliga chalingan edi. Tatyaning qamalishi uni butunlay nobud qiladi. 1937 yilning kuzida ushbu kasallikdan vafot etadi.

...1938 yili maktabni a'lo baholarga tamomladim. Oldimda ikkita yo'l turardi: Moskva davlat universitetiga yoki Samarqanddagi O'zbekiston davlat universitetiga kirib o'qish. Samarqandga borishni menga matematika o'qituvchimiz Mazitov taklif qilgan edi. Moskvada o'qish yaxshi, lekin attestatim a'lo bo'lgani bilan shunday tarjimai xol bilan meni o'qishga qabul qilishlariga ko'zim yetmasdi. Nihoyat shu yilning avgust oyi oxirida onam va ukalarim va singlim Irina bilan xayrlashib, Samarqand poezdiga o'tirdim. Mening bolalik orzuim amalga oshayotgan edi. Biroq juda og'ir paytda onamni tashlab ketyapman. Oilamizdagi kattalarning qamaliganiga endi bir yil bo'ldi, Otam va Varya esa izsiz yo'qolishdi. Ularning o'rniga men oilaning tayanchi bo'lib qolgandim. Endi bo'lsa ketyapman... Biroq yoshlikning

³ Шамсутдинов Р. 1937-1938 йилларда қатағон қилинган андижонликларнинг хасратли қиссаси. Тошкент. "Янги аср авлоди" 2014. 50-87-бетлар.

o'jar xudbinligi, o'qishga o'lgidek qiziqish hammasidan ustunlik qildi. Men fizik bo'lishni xohlagandim. Ko'proq kosmos, mikrochastotalar dunyosi qiziqtirardi. Lekin Samarqandga borgach bu yerda orzularim ushalmasligini angladim. Yangi ochilgan universitetda o'qitish darajasi unchalik yuqori emasdi. Onamning Moskvaga yaqin joyga ko'chib borish haqidagi taklifidan so'ng u yerdagi universitetda o'qish istigi qalbimda yana g'allayon qila boshladi. O'qishni birdan tashlamasdan, vaqtincha to'xtatib turishga qaror qildim. Sessiyada hamma imtixonlarni beshga topshirib bo'lgach bo'shash haqida ariza yozdim. Uyga qaytgach, yana onamning ma'yus chehrasiga ko'zim tushdi. Tatyva va Grishadan ahyon-axyondagina xat kelardi. Otam bilan Varyadan hamon darak yo'q. Men Qoradaryo irrigatsiya tizimlari boshqarmasining transport bo'limiga texnik hisobchi bo'lib ishga joylashdim. Nomlanishidan ham ma'lum, ushbu boshqarma o'ta murakkab bo'lgan kanallar tizimiga xizmat ko'rsatish va ularni boshqarish bilan shug'ullanadi. Har kuni Andijon tumani (u paytda Andijon viloyati tashkil etilmagan edi) hududidan tashqariga chiqadigan yuk avtomashinalarining tonna-kilometri va ularning benzin sarfi hisobini yuritardim. Kechasi esa kattalarning kechki maktabida fizikadan dars o'tardim. Ishda menga yaxshi munosabatda bo'lishgan. Vazifam shofyorlardan biri aytganidek bir uyum qog'ozni u yerdan bu yerga olib qo'yishdan iborat edi. Bu haqda yozish uncha qiziq emas. Faqat bir necha kishini eslab qolganman. Ombor mudiri Ko'ziboev keksayib qolganiga qaramay qattiqqo'l va xasis odam edi. Undan hamma qo'rqardi, u esa bundan xuzurlanardi. Xatto bosh injener(u bir vaqtning o'zida direktorlik vazifasini ham bajargan) Bogatirov ham omborchiga hurmat bilan qarardi. Mening bevosita rahbarim, injener Kleymanov yumshoq, oqko'ngil odam. U odatda ochiq derazadan xovlida turgan garaj mudiri Bogunga qichqirardi. Bogun uning chaqirganini eshitmagach, noiloj telefon go'shagini ko'tarib qo'ng'iroq qilardi. Ba'zan telefon raqamini terib qo'yib, deraza oldiga chopqilab kelardi, Bogun joyidamikin deb. Bu hisobchimiz Kleymenovni xazil qilishga undardi: "Bogun, go'shakni ko'tar, xozir sen bilan telefonda gaplashaman" deb.

Biz Moskvaga ketishga shaylanardik. CHipta olish esa oson emasdi. Ertalab oldindan bilet sotish kassasiga kirgan edim, shu kunning o'ziga chipta borligini aytishdi. Kechga borib butun oilamiz bilan vagonga joylashdik.

Rossiyaga ko'chib kelgach, Moskva davlat universitetining fizika fakul'tetiga hujjatlarimni topshirdim. A'lochi sifatida imtixonlarsiz qabul qilishdi. Biroq peshonamizda soldat formasini kiyish yozilgan ekan. Ikkinchi jahon urushi boshlanib, harbiy xizmatga jo'nab ketdim...¹

¹ Шамсутдинов Р. Андижонинг 30-йиллардаги ҳаётидан чизгилар. Андижоннома. 2103 йил 24 июнь. 3-бет

XULOSA

Andijon tarixi haqida o'sha tuzum mafkurasi ruhida yozilgan o'zbek sovet entsiklopediyasida juda qisqa ma'lumotlar berilgan. Unda Andijonning o'tmishiga qisqacha tarixiy ekskursiya qilingan. Yangi O'zbekiston milliy entsiklopediyasida esa Andijon to'g'risida, uning tarixi va hozirgi vaqtdagi holati, qiyofasi haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan, Andijon tarixi bo'limi Baxtiyor Ziyoev tomonidan yozilgan. Dono Ziyoeva, Alinazar Egamnazarovlar 1898 yilgi Andijon qo'zg'oloni tafsilotlarini yozganlar. Ma'lumotlar xarakteridagi qolgan materiallar Salohiddin Sirojiddinov, Abdug'ulom Sultonov, Sobirjon SHokarimov, SHuhrat Karimovlar tomonidan yozilgan¹.

Ushbu maqolalar entsiklopediyaning avvalgi nashridan keskin farq qiladi. Bu yerda biz Andijon hayoti va tarixidagi asosiy jihatlarni ochib berishga yangicha yondashganini ko'ramiz.

Mustaqillik yillarida nashr etilgan bir qator sharhli asarlar va o'quv qo'llanmalarda ham XVIII asrdan XX asrgacha bo'lgan davrdagi Andijon tarixining ayrim qirralari ko'rsatilgan. Ana shunday asarlarda Qo'qon xonligi tarixi, jumladan, uning chor Rossiyasi qo'shinlari tomonidan bosib olinishi, chet el bosqinchilariga qarshi kurash, Turkiston tuprog'ida mustamlakachilik hukmronligining o'rnatilishi, o'lkadagi chor hukumatining olib borgan mustamlaka siyosati, uning zulmiga qarshi kurash, 1898 yildagi Andijon qo'zg'oloni, demokratik milliy ozodlik xarakatlarining yuzaga kelishi va rivojlanishi, jadidlar harakati, 1916 yilgi qo'zg'olon kabi masalalar O'zbekiston tarixining hozirgi yangi metodologiyasi va kontseptsiyasi talabi darajasida mutlaqo yangicha talqin etilmoqda².

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1- жилди. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат нашриёти”, Тошкент. 2000, 323-341- бетлар.

² Бу ўринда Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. “Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида” (Х.Содиқов, Р.Шамсутдинов, П.Равшанов) китобини таъкидлаш лозим.

O'zbekistonning sovet davri tarixi ham yangicha nuqtai nazardan o'rganilmoqda. Mazkur muammo bo'yicha hozirgi vaqtda maxsus monografiyalar, risolalar, xujjatli materiallar to'plamlari, ko'plab ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar mavjud. Bu mavzu bo'yicha nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Ular qatorida O'zbekistonning yangi tarixining ikkinchi kitobi - "O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida" kitobi alohida ahamiyatga egadir. SHuningdek, ushbu mavzuda 2004 yili Andijonda nashr etilgan¹, 2010 yili Toshkentda "SHarq" nashriyotida lotin imlosida chop etilgan " VATAN TARIXI" o'quv qo'llanmalarida ham Andijon tarixiga oid ayrim ma'lumot va materiallar keltirilgan.

Butun Turkiston o'lkasida bo'lganidek, Andijonda ham Oktyabr inqilobi yuz bermagan va buning uchun ijtimoiy-iqtisodiy shart- sharoiti ham yo'q edi. Mahalliy aholi bunday inqilobni xohlamagan, bu g'oya ular uchun begona bo'lgan. Inqilob g'oyasi, bolsheviklar yo'li, jumladan sotsializm va kommunizm siyosati o'lkaning tub aholisi tomonidan qabul qilinmagan. SHuning uchun bu yerda fuqarolar urushi emas, balki sovetlarga va qizil armiyaga qarshi milliy ozodlik uchun kurash olib borilgan.

Endilikda odamlar ongidan bosmachilik aksilinqilobiy kuch emas, aksincha bolsheviklar diktaturasiga qarshi milliy ozodlik harakati degan tushuncha mustahkam joy olmoqda. Biz "bosmachilar", qo'rboshilar deb atagan va ularning Ergash, Madaminbek, SHermuhammadbek, Oxunjon, Isroil, Mahkam xoji kabi yo'lboshchilari qalbida Vatan tuyg'usi mujassam edi, ular qo'lda qurol bilan milliy mustaqillik uchun kurash olib borganlar.

Sobiq Ittifoqda rivojlangan sotsializm emas, hatto sotsializmning o'zi ham qaror topmaganini yaxshi bilamiz. Andijon ham hech qachon na sotsializm, na uning yuqori bosqichi - rivojlangan sotsializmni o'z boshidan kechirmagan.

SHuni ham ta'kidlash joizki, sovet tuzumi sharoitida tariximizning ko'plab muhim jihatlari, sahifalari ongli ravishda qalbakilashtirilgan, soxtalashtirilgan, buzilgan. Masalan, Qo'qon muxtoriyati, ya'ni Turkiston muxtoriyati burjua-millatchi,

¹ Шамсутдинов Рустамбек. Каримов Шоди. Ўзбекистон тарихидан материаллар. (Учинчи китоб). Андижон, 2004, 651- бет.

xalqqa qarshi aksilinqilobiy davlat sifatida talqin etilgan. Aslida esa u birinchi milliy demokratik davlat edi. Bu davlat uzoq yillar mobaynida o'lkada xalqlarining sarvarlari, munavvarlari, ilg'or kishilari, taraqqiyparvarlari, millatning yetakchilari bo'lmish jadidlarning sa'yi-harakatlari tufayli bunyod etilgandi. Ammo bolsheviklar bu davlatni beshikdaligi chog'idayoq bo'g'ib o'ldirdi. Bunga javoban esa jadidlar sovetlarga qarshi kurash yo'liga o'tdi. Qurolga qarshi qurol bilan javob berish sari yo'l tutildi. Bu jarayon 16 yil davom etdi. Mustaqillik uchun kurashchilarni bolsheviklar afkor omma oldida butunlay badnom qilish maqsadida "bosmachilar", "bosmachilik harakati" deb nomladilar. Sovet rejimiga, qizil armiya bosqiniga, bolshevistik diktaturaga qarshi Andijonda ham katta ko'lamda milliy kurash olib borilgan.

Yoki bo'lmasa O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy davlat chegaralash masalasini olib qaraylik. Amalda bolsheviklar o'ylab topgan ayyorona siyosiy o'yin ishga solingan edi. Ular asrlar davomida bir yurt, bir qavm bo'lib kelgan O'rta Osiyo xalqlari birligini buzib, yo'q qilib, ularni milliy hududlarga "bo'lib tashlash siyosati"ni qo'llab, o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qozoqlarni "milliy kvartiralar"ga bo'lib tashlab, ularning har birini alohida-alohida idora etish, ularga o'z erkini majburlash, ularni proletariat diktaturasi iskanjasida saqlash, ezishni maqsad qilib olganlar. Bu "o'yinlar"ning barchasi "lenincha milliy siyosatning hayotdagi g'alabasi", "millatlar taqdirini o'zlari belgilash siyosatining amalga oshirilishi", "xalqlar do'stligi" kabi sohta shiorlarga burkangan bolsheviklar taktikasi edi.

Bolsheviklarning "o'yinlar"idan yana biri 1926-1927 yillarda O'zbekistonda zo'rlik bilan o'tkazilgan yer-suv islohoti bo'ldi. Ular yer islohoti tadbirlari bilan niqoblanib, o'z oldilariga milliy qishloqda ijtimoiy antogolizmni avj oldirish, kuchaytirish, milliy adovat, nizoni yuzaga keltirish, dehqonlarning sovet hokimiyatiga qarshi kurashidan e'tiborini boshqa yoqqa tortish, mustaqillik uchun kurashlarning ijtimoiy bazasini yo'q qilishdan iborat g'alati va mudhish maqsadni qo'yganlar va uni amalga oshirish uchun jon-jahdi bilan kurashganlar.

1929-1933 yillarda zo'rlik bilan kollektivlashtirish, dehqonlarni quloqqa tortish amalga oshirildi. Dehqonlarga qarshi urush e'lon qilindi. Amalda ularga nisbatan sotsialistik genotsid qo'llanildi. Bu siyosat fojeali oqibatlarga olib keldi. SHunga

qaramasdan sovet tarixshunosligi bu fojeani kommunistik partiya agrar siyosatining zafari deb talqin etdi.

Qonli repressiyalar, “Katta qirg’in”, “1937-1938 yillardagi “Quloqlar operatsiyasi” tadqiqotchilarning o’rganish ob’ekti bo’lmay qolgandi. Bu fojealar haqida mutlaqo jimlik hukm surardi. Tarixning bu syujeti ham yopiq hisoblangan. Hukumatning yuqori eshelonlarida qatag’on siyosatini sotsializm uchun va xalq dushmanlarini tugatish uchun qilingan tadbir deb tushunilgan.

Xullas, tariximizda bu kabi “oq” dog’lar juda ham ko’pdir. Bularning barchasi haqida bu yerda so’z yuritish, fikr bildirish imkoni yo’qdir. Bu to’g’rida batafsil to’xtashning mavridi emas ham. Faqat shuni ta’kidlash lozimki, “tarixiy voqealarni bol’sheviklarcha ideallashtirish, soxtalashtirish, buzish” sovet totalitar rejimining natijasi, mahsuli va mevasidir. SHuning bilan ana shu nuqtai nazardan Andijon tarixiga yondashgan mualliflarni ayblay olmaymiz, bunga haq-huquqimiz ham yo’q. Ularning barchasi o’z zamonida kommunistik, marksistik laboratoriyalarda tayyorlangan “dori-darmonlar” bilan zaharlangan edilar. Ular faqat sotsialistik ideologiya doirasidagina fikrlash va yozish imkoniga ega edilar. Barcha tarixiy asarlar sovet davrini maqtashga va kommunistik tarbiya ishiga xizmat qilishi kerak edi.

SHundan kelib chiqqan holda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov MDH mamlakatlari rahbarlari ichida birinchi bo’lib O’zbekistonning yangi tarixini va hozirda esa uning eng yangi tarixini yaratish, uning yangi kontseptsiyasini ishlab chiqish masalasini o’rtaga qo’ydi. Bu vazifa muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Andijon tarixi bugun jahonga yuz tutgan, tenglar orasida teng bo’lgan O’zbekiston umumiy tarixining ajralmas tarkibiy qismi, bir bo’lagidir. Andijonni chorizm tomonidan bosib olinishi, mustabid sovet hokimiyatining o’rnatilishi va uning oqibatlari, sovet rejimi davrida andijonliklarning mehnat faoliyati bilan amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’daniy va ma’naviy hayotdagi yutuqlarini hamda bu davrning salbiy jihatlarini, oqibatlarini, fojeali voqealarining ham hozirgi va kelgusi avlod bilishlari kerak. Sovet tuzumini boshdan-oyoq qoralash bilan cheklanib qolmay, u davrdagi xalqimiz yaratgan buyuk inshootlarni munosib qadrlashimiz lozim. O’sha

davrdagi tarixiy jarayon qanday kechgan bo'lsa, uni o'shanday tarzda yozish va uni tanqidiy, holisona baholash zarur. Xoh ijobiy, xoh salbiy bo'lsin o'sha bunyodkorlik ishlarda xalqimizning mehnati, kuchi borligini unutmasligimiz kerak. O'sha tarix xalqimiz xotirasida kelgusi avlodlar qalbida saqlanib qolishi lozim.

Xalqimizning bunyodkorlik qudrati Mustaqillik yillaridagi taraqqiyotimizning hozirgi bosqichiga bevosita ta'luqlidir. Ana shu bosqichda respublikamizning boshqa viloyatlari qatori Andijon viloyati ham gurkirab rivojlanmoqda, uning iqtisodiy salohiyati yuksalmoqda. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, ma'naviy, ahloqiy hayotning barcha sohalarida chuqur ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda.

Bayrog'ida buyuk Amir Temur ordeni xilpirab turgan Andijonning o'tmishi, buguni va kelajagiga har bir yurtparvar, millatparvar inson, yoshu-qari, kattayu-kichik, erkagu-ayol, barcha-barcha andijonliklar, shu zaminda yashab, taqdir taqozosi bilan O'zbekistonning boshqa viloyatlarida hayot kechirayotgan yurtdoshlarimiz ham bevosita daxldor hisoblanadi.

Andijon sanoat va qishloq xo'jaligi gurkirab ravnaq topgan, ijtimoiy-siyosiy va madaniy- ma'naviy qadriyatlari barq urib rivojlangan hozirgi zamon bilangina emas, balki u o'z tarixi bilan ham boy va ko'rkamdir.

Viloyatdagi mislsiz chuqur va keng qamrovli, katta ko'lamli o'zgarishlarning eng asosiy omillaridan biri, eng asosiysi bu Andijon xalqidir. Viloyat aholisi juda ham oriyatli, diyonatli, mafzi halol, qalbi pok, tashabbuskor, ishning ko'zini biladigan, kattayu-kichikning hurmatini joyiga qo'yadigan, uzoq va yaqin o'tmishini anglab, keljakni olindan ko'ra biladigan, bori-yo'qqa sabr qiluvchi, o'zidagi borini boshqalarga ilinadigan, baham ko'radigan bag'ri keng, tanti, sahovatli xalqdir. SHu fazilatlarining barchasi azmi Andijonning shonu-shuhratini tarannum etadigan asosiy omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. “Ўзбекистон” Тошкент, 2011. 165-бет.
2. Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари. Иккинчи китоб. (1937 йил 10 август-5 ноябрь). “Шарқ”, Тошкент, 2007. 176-177 бетлар.
3. Шамсутдинов Р., Исхоқов А. Андижон тарихидан лавҳалар. “Шарқ” Тошкент. 2013 йил.
4. Шамсутдинов Р., Мамажонов А., Бозоров Қ., Джумабоев И. Қўхна ва навқирон Андижон. Тошкент. “Шарқ” 2010. 17-бет.
5. Шамсутдинов Р., Содиқов Х., Равшанов П. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. “Туркистон чор Россияси мустанлакачилиги даврида”
6. Шамсутдинов Рустамбек. Каримов Шоди. Ўзбекистон тарихидан материаллар. (Учинчи китоб). Андижон, 2004, 651- бет.
7. Шамсутдинов Р. Андижонинг 30-йиллардаги ҳаётидан чизгилар. Андижоннома. 2103 йил 24 июнь. 3-бет
8. Шамсутдинов Р. 1937-1938 йилларда қатағон қилинган андижонликларнинг хасратли қиссаси. Тошкент. “Янги аср авлоди” 2014.
9. www.obot-prostory.ru
10. www.press-service.uz/uz/news/archive/main